

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

## **ZAMONAVIY ORGANIK KIMYO**

**2024**

**Avezov Q.G`.**

**BuxDU dosenti, PhD.**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“ZAMONAVIY ORGANIK KIMYO”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Kimyo**

**Buxoro – 2024**

Modulning o`quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi va o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** **Q.G` . Avezov** – BuxDU dosenti, PhD.

**Taqrizchi:** **O`M. Mardonov** – kimyo fanlari nomzodi, dotsent.

**O`quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2023 yil “28” dekabrdagi 5-sonli bayonnomma)**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI .....</b>	<b>15</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>18</b>
<b>IV. AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>76</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>96</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>100</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldaggi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2017 yil 7 fevraldaggi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdaggi “Oliy ta'lim muassasalari raxbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdi.lash to'.risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari va 2020 yil 12 avgustdaggi “Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzlusiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma.kamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari raxbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiyligi malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy

professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo’naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o’quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo’yicha so’nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo’llash bo’yicha tegishli bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo’nalishining o’ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **ZAMONAVIY ORGANIK KIMYO**

### **MODULNING MAQSADI VA VAZIFALARI**

Organik birikmalarning hozirgi zamon tuzilish nazariyasi. Fazoviy tuzilish. Tuzilish va xossa. Izomeriya turlari. Dinamik izomeriya. Tautomeriya va reaksiyaga kirishish markazining ko’chishi. Organik kimyoda yangi reaksiyalar mexanizmi. Nafis organik sintez. Metallokopleks kataliz. Tabiiy va sintetik organik birikmalar xaqida hozirgi zamon tasavvurlari. Aminokislotalar. Peptidlar va oqsillar. Nuklein kislotalar. Uglevodlar.

Organik birikmalarni individual holatda ajratib olish. Fizik-kimyoviy usullar yordamida birikmalarning tuzilishini aniqlash.

#### **Modulning maqsadi:**

“Zamonaviy organik kimyo” moduli maqsadi pedagog kadrlarning o’quvtarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo’ladigan kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

#### **Modulning vazifalari:**

Tinglovchi quyidagi malaka va ko’nikmalarga ega bo’lishi lozim:

- talabalarni o'ziga jalg qilgan xolda yangi pedagogik texnologiyalar asosida fanni tushuntirish;
- egallangan tajribani tanqidiy ko'rib chiqish qobiliyati, zarur bo'lganda o'z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o'zgartirish;
- kasbiy faoliyatda tabiiy-ilmiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, matematik taxlil va modellash, nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash;
- bugungi raqamli texnologiyalar davrida jamiyatning rivojlanishidagi axborot texnologiyalarining mohiyati va axamiyatini tushunish malakalariga ega bo'lishi kerak;

**Tinglovchi:**

- zamonaviy va innovation ta'lif muhitini boshqarish;
- kimyo bo'yicha zamonaviy va innovation ta'lif texnologiyalariga asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- kimyo sohasi bo'yicha tinglovchilarining izlanishli-ijodiy faoliyatga jalg etish kompetensiyalarni egallashi lozim.

**Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**“Zamonaviy organik kimyo” kursi bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:**

**Tinglovchi:**

- kimyo ta'lif jarayonining tabiiy va aniq fanlar ta'lif jarayonlari bilan umumiyligini, o'qitish prinsiplari va qonuniyatlarini;
- tabiiy va sintetik moddalar analizining zamonaviy usullarini;
- zamonaviy organik kimyoning rivojlanish yo'nalishlarini;
- organik birikmalarining fizik va kimyoviy xossalari to'g'risida ma'lumotlarni;
- organik birikma molekulasidagi atomlar o'zaro ta'siri va ularning turlarini;
- kimyo sanoati bilan bog'liq ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llarini **bilishi** kerak.

### **Tinglovchi:**

- so'nggi yillardagi ilmiy yutuqlardan kimyo ta'limali foydalanish;
- organik kimyo yo'nalishida nanotexnologiyalar asosida olingan materiallardan zamonaviy texnika xomashyolarini ishlab chiqish;
- organik moddalar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va ularning xossalari molekulyar tuzilishi asosida tushuntirish;
- organik reaksiya turlari va ularning mexanizmlari to'g'risida;
- biologik faollikkaga ega bo'lgan organik moddalarni sintez qilish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.
  - tabiiy va sintetik organik birikmalarni fiziologik faolligi, tirik organizmda bajaradigan funksiyalari va davolash imkoniyatlari to'.risida zamonaviy ma'lumotlarni;

### **Tinglovchi:**

- fanning rivojlanishiga doir so'nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyatini tahlil qilish;
- organik moddalarni farmasevtika, medisina, oziq-ovqat, yengil sanoat vositalari sifatida ishlatish;
- organik moddalarning kimyo sanoatining turli sohalarida qo'llanilishi;
- geterosiklik birikmalarning amaliy ahamiyati to'g'risida;
- organik kimyoni o'qitishda verbal (belgili) va vizual (virtual) namoyish usullaridan foydalanish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

**"Zamonaviy organik kimyo"** moduli materiallari bilan kurs tinglovchilarini tanishtirish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'liming zamonaviy usullari, kompyuter texnologiyalari, internet tarmog'idan olingan yangiliklarni qo'llash usulidan foydalaniladi. Ma'ruza darslarida prezentsiya usulida, amaliy mashg'ulotlarda esa yangi laboratoriya, aqliy xujum, guruxli fikrlash usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**  
**"Zamonaviy organik kimyo"** moduli mazmuni o'quv rejadagi kimyoning boshqa modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning bu soha bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

**"Zamonaviy organik kimyo"** modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg'or tajriba va yangiliklarni o'rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat</b>						<b>Mustaqil ta'lim</b>	
		<b>Hammasi</b>	<b>Jami</b>	<b>Auditoriya o'quv yuklamasi</b>					
				<b>jumladan</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy</b>	<b>mashg' ulot</b>	<b>Ko' chma</b>	<b>mashg' ulot</b>
1.	Organik birikmalarning xozirgi zamon tuzilish nazariyasи. Fazoviy tuzilish. Tuzilish va xossa.	4	4	2	2				
2.	Izomeriya turlari. Dinamik izomeriya. Tautameriya va reaksiyaga kirishish markazining ko'chishi.	6	6	2	2	2			
3.	Organik kimyoda yangi reaksiyalar mexanizmi. Nafis organik sintez. Metall kompleks kataliz.	10	10	2	2	6			
4.	Organik birikmalarni individual holatda ajratib olish. Fizik-kimyoviy usullar yordamida birikmalarning tuzilishini aniqlash.	8	8	2	2	4			
<b>Jami:</b>		<b>28</b>	<b>28</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>12</b>			

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Organik birikmalarning hozirgi zamon tuzilish nazariyasi. Fazoviy tuzilish. Tuzilish va xossa. (2 soat)**

#### **R E J A:**

1. Tuzilish va hossa
2. Fazoviy tuzilish asoslari
3. Fazoviy tuzilish nomenklaturasi
4. Sharoit va muhit asosidagi xozirgi zamon ta'rifi

O'simlik va xayvon organizmining tarkibida uchraydigan turli birikmalar qatorida organik moddalarni muxim rolini, bajaradigan funksiyalarini, bioregulyatorlik, mediator va davolovchi xususiyatlari muhim axamiyat kasb etadi.

O'simlik, xayvon yoki mirkoorganizm xomashyosidan organik moddalar aralashmasini ajratib olishdan boshlab toki noyob davolovchi xususiyatlari ega bo'lgan dorilar yaratishgacha mashshaqtli ishni bosqichma-bosqich bajarish prinsiplari, omillari, rejasini tushuntirish va ko'nikma hosil qilish vazifasini belgilaydi.

### **2-mavzu: Izomeriya turlari. Dinamik izomeriya. Tautameriya va reaksiyaga kirishish markazining ko'chishi. (2 soat)**

#### **R E J A:**

1. Izomeriya va tautameriya turlari. Dinamik izomeriya.
2. Organik kimyodagi mezomeriya va uning turlari:  $\pi,\pi^-$ ,  $r,\pi^-$ ,  $\sigma,\sigma^-$  mezomeriyalar.
3. Faoviy tuzilish va mezomeriya.
4. Mezomeriya va reaksiyon markazning ko'chishi.
5. Mezomerianing o'ziga xos xususiyatlari.
6. Mezomerianing birikma xossalarida aks etishi.

### **3-mavzu: Organik kimyoda yangi reaksiyalar mexanizmi. Nozik organik sintez. Metall kompleks kataliz. (2 soat)**

#### **R E J A:**

1. Almashinish, birikish va kondensasiya reaksiyalarigi yangiliklar.
2. Yangi nitrozofenollarning sinezi va ulvrning analitik kimyoda ishlatilinishi.
2.  $S_N$  reaksiyalar
3.  $S_E$  reaksiyalar
4. To'yingan uglerod atomidagi vodorodning elektrofil almashinish reaksiyalari

Elektron nazariyasiga kadar organik reaksiyalarning kuyidagi asosiy tiplari ma'lum edi:

1) o'rin olish; 2) birikish; 3) ajralish; 4) kayta gruppalanish. Xalqaro deb kabul kilingan ingliz adabiyotlarda o'rin olish reaksiyasi — S(substitution), birikish reaksiyasi — A(adition) va ajralish reaksiyasi — E(elimination) xarflari bilan ifoda etiladi.

### **4-mavzu: Organik birikmalarni individual holatda ajratib olish.**

#### **Fizik-kimyoviy usullar yordamida birikmalarning tuzilishini aniqlash.**

*(2 soat).*

#### **R E J A:**

1. Toza modda olinishida Fizik-kimyoviy usullarining ahamiyati.
2. Modda tuzilishini aniqlashda kompleks yondashuv.
3. Refraktometriya, xromatografiya, spektral usullar.
4. IQ, PMR spektroskopiya, masspektrometriya
5. Rentgen tuzilish analizi.

Fizik-kimyoviy usullar yordamida moddalar tabiiy xomashyo yoki sintetik aralashmadan ajratib olinadi va tozalanadi. Bunda Ekstraksiya va xromatografiya usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Toza modda olingandan so'ng uning

kimyoviy tuzilishi kimyoviy va uskunaviy usullarda komplek tarzda o'rganiladi.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot: Organik birikmalarning xozirgi zamон tuzilish nazariyasi. Fazoviy tuzilish. Tuzilish va xossa. (2 soat)**

#### **R E J A:**

1. Organik birikma xossasiga ta'sir etuvchi omillar: tarkib va kimyoviy tuzilish.
2. Organik birikalar xossalariiga sifat va miqdoriy tarkibning, kimyoviy tuzilishning ta'siri.
3. Organik birikma xossalariiga elektron tuzilishning, sharoit va muxitntng taesiri.

### **2-amaliy mashg'ulot: Izomeriya turlari. Dinamik izomeriya. Tautameriya va reaksiyaga kirishish markazining ko'chishi. (2 soat)**

#### **R E J A:**

1. Struktura, geometrik, optik va dinamik izomeriya turlari. Meameriya. Burilish izomeriyasi.
2. Tautameriya va konformasilar dinamik izomeriya turlaridir. Izomeriya va tautomeriya turlariga misollar yechish.
3. Izomerlar va tautomerlarni nomlash bo'yicha misollar yechish.

### **3-amaliy mashg'ulot: Organik kimiyoda yangi reaksiyalar mexanizmi. Nafis organik sintez. Metall kompleks kataliz. (2 soat)**

#### **R E J A:**

1. Platina komplekslari ishtirokida boradigan kross - birikish reaksiyalari, Vaker jarayonlari.
2. Molibden, Reniy, ruteniy katalizatorlari ishtirokidagi metatezis reaksiyalari.
3. Etilen va terminal alkinlardagi reaksiyalar.
4. Mavzu yuzasidan test savollari, misollarni muhokama qilish.

**4-amaliy mashg'ulot: Organik birikmalarni individual holatda ajratib olish.  
Fizik-kimyoviy usullar yordamida birikmalarning tuzilishini aniqlash. (2 soat)**

**R E J A:**

1. Refraktometriya, xromatografiya, spektral usullar.
2. IQ, PMR spektroskopiya, masspektrometriya.
3. Rentgen tuzilish analizi.

**KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-ko'chma mashg'ulot: Izomeriya turlari. Dinamik izomeriya. Tautameriya  
va reaksiyaga kirishish markazining ko'chishi. (2 soat)**

**R E J A:**

1. Struktura, geometrik, optik va dinamik izomeriya turlari. Meameriya. Burilish izomeriyasi. Izomeriya va tautomeriya turlariga misollar yechish.
2. Izomerlar va tautomerlarni nomlash bo'yicha misollar yechish.

**2-ko'chma mashg'ulot: Organik kimyoda yangi reaksiyalar mexanizmi. Nafis  
organik sintez. Metall kompleks kataliz. (4 soat)**

**R E J A:**

1. Mis kompleks katalizli reaksiyalar.
2. Mavzu yuzasidan test savollari, misollarni muhokama qilish.

**3-ko'chma mashg'ulot: Organik birikmalarni individual holatda ajratib olish.  
Fizik-kimyoviy usullar yordamida birikmalarning tuzilishini aniqlash. (6 soat)**

**R E J A:**

1. IQ, PMR spektroskopiya, masspektrometriya.
2. Rentgen tuzilish analizi.

**O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalilanadi: ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlarida kimyo fanlarni o'qitish metodikasi sohasidagi yangi ma'lumotlar, zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan tanishtirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash.

O'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, grafik organayzerlardan, keyslardan foydalanish, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, blis-so'rovlardan, sinkveyn va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL**

### **TA'LIM METODLARI**

#### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

#### **“Davra suhbatı” metodi**

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lism olovchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lism olovchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lism beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lism olovchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lism olovchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lism olovchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan

so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lism oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

### **Davra stolining tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lism oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lism oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lism oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lism oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lism oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbatii" metodining tuzilmasi keltirilgan



### **"Blis-o'yin" metodi**

**Metodning maqsadi:** o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish,

rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni “to'g'ri javob” bo'limiga yozish so'raladi.

4. “To'g'ri javob” bo'limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so'raladi. Shundan so'ng “yakka xato” bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to'g'ri javob” va “guruh bahosi” o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### **III. NAZARIY MA'LUMOTLAR**

**1-MAVZU: Organik birikmalarning xozirgi zamon tuzilish nazariyasi.**

**Fazoviy tuzilish. Tuzilish va hossa.**

**REJA:**

1. Tuzilish va hossa
2. Fazoviy tuzilish asoslari
3. Fazoviy tuzilish nomenklaturasi

**Tayanch iboralar:** stereokimyo, dinamik stereokimyo, konformatsion analiz, optik faollilik, fiziologik faollilik, Valden almashinuvi, tetraedrik model, valent burchagi, torsion burchaklar, tuzilish va t`asir uzviyiligi, energetik bar'er, konformatsiya, tormozlangan, to'silgan, aylanish bar'eri, gosh, shaxmat, : enantiomer, ko'zgu izomerlar,  $\sigma$ -diastereomer,  $\pi$ -diastereomer, ratsemat, proyeksiyon formulalar, asimetriya, o'q, maydon, asimetrik markaz, xirallik, atropoizomeriya, bifenil, spirallik, gelisen, enantiotopiya, diasterotopiya.

#### **1.1. Tuzilish va hossa**

O'simlik va xayvon organizmining tarkibida uchraydigan turli birikmalar qatorida organik moddalarni muxim rolini, bajaradigan funksiyalarini, bioregulyatorlik, mediator va davolovchi xususiyatlari muhim axamiyat kasb etadi.

O'simlik, xayvon yoki mirkoorganizm xomashyosidan organik moddalar aralashmasini ajratib olishdan boshlab toki noyob davolovchi xususiyatlariga ega bo'lgan dorilar yaratishgacha mashshaqtli ishni bosqichma-bosqich bajarish prinsiplari, omillari, rejasini tushuntirish va ko'nikma xosil qilish vazifasini belgilaydi.

Tirik organizmda kechadigan jarayonlarda kimyoviy birikma larning ishtiroki. Ularning retseptorlar bilan o'zaro ta'sirlanishda fazoviy tuzilishning ahamiyati. Stereokimyo fanining shakllanish tarixi, maqsad va vazifalari. Kimyoviy reaksiya jarayonida fazoviy tuzilishni o'zgarishi,

bunday o'zgarishlarni kuzatish usullari. «Dinamik stereokimyo», «konformatsion analiz» tushunchalari, ularni vazifalari.

### **Stereokimyoning ilmiy mazmuni va ahamiyati.**

Fazoviy tuzilish nafaqat fizik va kimyoviy xossalarga, balki fiziologik faollikka ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'p fiziologik faol tabiiy birikmalarning ikki optik antipodlaridan(enantiomerlar) birgina (+ yoki -) fiziologik faollik ko'rsatadi xolos. Ikkinchi izomerning faolligi odatda juda past bo'ladi yoki mutlaqo kuzatilmaydi.


Sifatli polimer materiallar olish jarayonida ularni fazoviy tuzilishini bilish amalda qo'llaniladi.

Stereo yo'naltirilgan sintezlar natijasida birikmalarning absolyut konfiguratsiyasini aniqlash imkonii tug'iladi.

Organik kimyoning nazariy muammolarini yechishda stereokimyoning quyidagi xulosaviy natijalari muhim hisoblanadi:

- agar (Valden almashinish natijasida) reaksiyaning mahsulotida optik aylanishning belgisi o'zgarsa, reaksiya  $S_N2$  mexanizmda sodir bo'lgan bo'ladi;
- agar ikkala enantiomerlar (+ va -) ning teng miqdordagi, aralashmasi ya'ni ratsemat hosil bo'lsa,  $S_N1$  mexanizmi "ishlamoqda" degan xulosa qilinadi.

Asimmetrik reaksiyon markazi bo'lgan galogenalkanlar  $S_N2$  reaksiyaga kirishishi natijasida Valden almashinishga uchraydi va qarama qarshi konfiguratsion izomerni hosil qiladi:



Radiofaol galogenid ( $R-X^*$ ) teskari optik aylanish burchagiga ega.

Molekulalarning fazoviy tuzilishi va bu tuzilish moddaning fizikaviy va kimyoviy xossalariga, moddalar ishtirok etadigan reaksiya mexanizmlariga, moddalarning boshqa barcha xususiyatlariga ta'sirlarini o'rganadigan kimyoning bo'limidir. Stereokimyo moddalarning mutloq (absolyut) va nisbiy konfiguratsiyasini, ya'ni nafis strukturasini aniqlash, uni tasavvur qilish, tasvirlash

usullarini ishlab chiqadi. Tadqiqotlar jarayonida klassik kimyoviy va zamonaviy uskunaviy uslublaridan foydalanadi.

## **2-mavzu: Izomeriya turlari. Dinamik izomeriya. Tautameriya va reaksiyaga kirishish markazining ko'chishi.**

### **R E J A:**

1. Izomeriya va tautameriya turlari. Dinamik izomeriya.
2. Organik kimyodagi mezomeriya va uning turlari:  $\pi,\pi^-$ ,  $r,\pi^-$ ,  $\sigma,\sigma^-$  – mezomeriyalar.
3. Faoviy tuzilish va mezomeriya.
4. Mezomeriya va reaksiyon markazning ko'chishi.
5. Mezomerianing o'ziga xos xususiyatlari.
6. Mezomerianing birikma xossalarida aks etishi.

Bir-biriga normal sharoitda oson o'tadigan, o'tish energetik chegarasi past bo'lgan molekulaning turli fazoviy shakllari **konformatsiya** deyiladi. Turli konformatsiyalarning ta'rifini, ularning bir-biriga o'tish baryerlari (energetik chegaralari), bu jarayonlarni reaksiya o'tish muhiti va sharoitlariga bog'liqligini o'rGANADIGAN fan konformatsion analiz deyiladi. Organik kimyoda stereokimyoning ahamiyati nihoyatda katta, shu bilan birga noorganik kimyoda, ayniqsa, kompleks birikmalar qatorini o'rGANISHDA juda muhim hisoblanadi.


## **STEREOIZOMERIYA (FAZOVIY IZOMERIYA)**

Stereokimyo (yunoncha *stereos* – fazoviy) molekulada atomlarning fazoviy joylashishini, fazoviy tuzilish birikmalarning fizikaviy va kimyoviy xossalariiga qanday ta'sir qilishini o'rGANADI. Stereokimyoning muhim sohalaridan biri stereoizomeriyadir. Tarkibi (molekulyar formulasi) va molekulasida atomlarning bog'lanish tartibi (tuzilish formulasi) bir xil bo'lib, bir-biridan faqat atomlarning fazoda joylashishi bilan farq qiladigan izomerlarga stereoizomerlar deyiladi.

Odatda stereoizomeriya uchga (optik, geometrik va konformatsion) bo'linadi. Optik va geometrik izomeriya konfiguratsion izomeriyaga kiritiladi. Kitobning I bobida konformatsion, II bobida esa geometrik izomeriya ko'rib chiqildi. Endi optik izomeriya bilan batafsil tanishamiz.

## Optik (enantiomer yoki ko‘zgu) izomeriyasi



Optik izomeriya – molekulaning xiralligi bilan bog‘liq stereoizomeriya turidir. Masalan, quyida keltirilgan bromftorxlormetanning ikki strukturasi bir xil molekulyar va struktur (tuzilish) formulalarga ega bo‘lib, fazoda atomlarning turlicha joylashishi bilangina o‘zaro farq qiladi:




Molekulalarning fazoviy tasvirlashda quyidagi shartli belgilash qabul qilingan: — — chizma tekisligida joylashgan bog‘lar, — — — chizma tekisligidan kuzatuvchiga qarab yo‘nalgan bog‘lar, ----- kuzatuvchidan chizma tekisligining orqa tomoniga yo‘nalgan bog‘lar.

Bromftorxlormetanning bu strukturalari bir-biriga enantiomer (ko‘zgu izomeri, optik antipod) hisoblanadi. Enantiomerlar konfiguratsion izomerlarga misol bo‘la oladi. Bir konfiguratsion izomerni boshqasiga aylanishi faqat tegishli kovalent bog‘lari uzilganda sodir bo‘ladi.

To‘rtta turli o‘rnbosar bilan bog‘langan uglerod atomiga **asimmetrik uglerod** atomi deyiladi, va u yulduzcha bilan belgilanadi ( $C^*$ ), bunday atomga **xiral** (lotincha “xir” – qo‘l) atom, yoki xiral markaz (stereomarkaz) ham deyiladi. Xiral molekulalarda misollar keltiramiz:



Sutkislotasidabittaasimmetrikuglerodatomiborligiuchun, uikkitaenantiomerholdamavjudbo‘ladi (23-rasm). D-sutkislotasidavodorodatomichapga, gidroksilo‘ngda, L-sutkislotasidaesa, aksincha, gidroksilchapda, vodorodatomio‘ngdajoylashgan.



23-rasm. Sut kislota optik izomerlari (a) va ularning Styuart-Brigleb modellari (b); ular bir-biriga o'ng va chap qo'l (d) yoki predmet va uning ko'zgu tasviri (e)dek o'xshaydi.

Nafaqat organik molekulalar, balki bir qator obyektlar (masalan, odamning o'ng va chap qo'llari) ham xiral bo'lib, biri boshqasining ko'zgu tasviri hisoblanadi.

Bu ikkita formulaning farqini bilish uchun, (vodorod atomi danka karboksil orqali dirok silga) kislotasida yo'nalish soat mili bo'yicha boradi. L-sut kislatasida esa mil soat miliga qarshi yo'nalgan. Demak, sut kislatasining enantiomerlari fazoviy tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi.

Xiral predmetlar, jumladan formulalari yuqorida keltirilgan molekulalar simmetriya elementlari (simmetriya markazi va simmetriya tekisligi)ga ega emas. Simmetriya elementlarining bo'lmasligi xirallikning universal belgisi hisoblanadi.

Ko'p organik birikmalarining molekulalari, jumladan C\* atomi tutmaganlari ham simmetriya markazi va tekisligiga ega emas. Masalan, n-butanning quyidagi ikkita konformatsion izomerida asimmetrik uglerod atomi yo'q. Ularning biri ikkinchisining ko'zgu tasviri bo'lib, formal enantiomerlar hisoblanadi:

Organik moddalarning optik faolligi **polyarimetr** yordamida aniqlanadi va o'lchanadi. Optik faol moddaning kuzatilgan **burish burchagi** "α" harfi bilan belgilanadi. Bu nuring to'lqin uzunligiga ( $\lambda$ ), nur o'tadigan qavatning qalinligiga ( $l$ ), haroratga ( $t$ ) bog'liq bo'lib, quyidagi formula bilan topiladi.

$$[\alpha]_t^{\lambda} = \frac{\alpha \cdot 100}{l \cdot C}$$


Bu yerda  $[\alpha]$ -solishtirma buruvchanlik qiymati;  $t$ -optik faollik o'lchanigan vaqtidagi harorat (odatda u xona haroratiga yani  $25^{\circ}\text{C}$  ga teng);  $\lambda$ -nuring to'lqin

uzunligi ;  $\alpha$  – eritmaning tajribada aniqlangan burish burchagi;  $l$ –kyuveta uzunligi,  $dm$ ;  $C$  – modda konsentratsiyasi, 100 ml eritmadağı moddaning grammalar soni,  $\rho$  – moddaning zichligi,  $g/sm^3$ .

Solishtirma buruvchanlik – moddaning optik faolligini tavsiflaydigan fizikaviy doimiylik hisoblanadi. U suyuqlanish va qaynash haroratlari singari moddalarni identifikasiyalashda muhim ahamiyatga ega.


Qutblangan nur tekisligini **o'ngga buradigan enantiomer** o'ngga buruvchi enantiomer deyiladi va u (+) bilan belgilanadi. Qutblangan nur tekisligini **chapga buradigan enantiomer** chapga buruvchi enantiomer deyiladi va u (-) bilan belgilanadi. Ikkita enantiomerning bir xil erituvchida eritilgan, teng konsentratsiyali, o'xshash kyuvetalarga joylashtirilgan eritmalar qutblangan nur tekisligini bir xil burchakga, lekin qarama-qarshi tomonlarga buradi. Masalan, (+)-2-butanolning solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D^{25} +13,52^0$ , (-)-2-butanolning solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D^{25} -13,52^0$ . Enantiomerlarning teng miqdordagi aralashmasi bir-birining optik faolligini kompensatsiyalab so'ndiradi va bu optik faolligi yo'qolgan eritma ratsemat aralashma (ratsemik shakl, ratsemik modifikatsiya) deyiladi va ( $\pm$ ) bilan belgilanadi.

XIX asrda kiritilgan "optik faollik" atamasi xiral birikmalarni izohlashda birmuncha noqulayliklar tug'dirgani uchun qaror "xirallik" atamasidan foydalanish qabul qilingan. Xiral molekulalar bir necha xil bo'ladi: Ularning birinchi xili bir yoki bir necha  $C^*$ -asimetrik uglerod atomi tutadi (175-176-betlar). Ikkinci xil xiral molekulalarda  $C^*$  va simmetriya elementi bo'lmaydi. Bularغا funksional almashingan allenlar va umumiy "C" atomiga ega bo'lgan bitsiklik birikma – spiranlar kiradi.



Optik faol allen – (a) va spiro-2,2-pentan – (b).

Uchinchi xil xiral molekulalar bi- yoki polihalqali arenlar bo‘lib, ularning eng oddisi *orto*-holatlarda turli o‘rnbosarlar tutgan bifenillar misol bo‘ladi. Bu molekulalarda benzol halqlari ikki xil tekislikda joylashgan, ammo *o*-holatlardagi fazoviy hajmi katta o‘rnbosarlar benzol halqlari qoldig‘ini bir-biriga nisbatan burilib, bir tekislikda joylashuviga imkon bermaydi. Bu ikkita (R va S) izomerlar atropoizomerlar deyiladi.



o,o‘-dinitrodifenkislota atropoizomeri.

### Fisherning proyeksiyon formulalari


Murakkab organik moddaning fazoviy tuzilishini qog‘ozga tasvirlash ancha qiyin. Shuning uchun 1891-yilda E.Fisher fazoviy tuzilishni uning nomi bilan ataladigan proyeksiyalar (tekis formulalar) ko‘rinishida tasvirlashni taklif qildi. Fisher proyeksiyon formulalarini tasvirlashda bir qator qoidalarga amal qilish lozim:

1. Fisher formulalarida birikmaning bosh uglerod zanjiri vertikal tekislikda, nisbatan oksidlangan uglerod atomi esa yuqorida joylashtiriladi.


2. Xiral markaz bilan vertikal chiziqlar orqali bog‘langan o‘rnbosarlar chizma tekisligining orqasida, xiral markaz bilan gorizontal chiziqlar orqali bog‘langan o‘rnbosarlar esa chizma tekisligining oldida joylashtiriladi.

3. Vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtada asimmetrik uglerod atomi joylashgan bo‘lib, odatda uni yozmasdan, tushirib qoldiriladi.


Formulani chizma tekisligida  $180^{\circ}$  ga aylantirish mumkin, lekin chizma tekisligidan chiqarish va  $90^{\circ}$  ga aylantirish mumkin emas:



Fisher proyeksiyalarida xohlagan ikkita o‘rnbosarning o‘rnini o‘zaro almashtirilganda enantiomer o‘zining ko‘zgu tasviriga aylanadi:




Fisher formulalarida o‘rinbosarlarning o‘rnini juft sonli almashtirilganda konfiguratsiya saqlanadi (o‘zgarmaydi):



Burish belgisiga qarab streoizomerlarning nisbiy konfiguratsiyasini aniqlash mumkin. Lekin absolyut konfiguratsiya (mazkur xiral markaz atrofida o‘rinbosarlarning haqiqiy joylashishi) bilan burish belgisi orasida bog‘liqlik yo‘q.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida boshida absolyut konfiguratsiyani kimyoviy usullar bilan aniqlash uchun hech bo‘lmaganda bitta absolyut konfiguratsiyasi aniq bo‘lgan xiral reagent (standart yoki etalon) zarur edi.


Fisher o‘zi o‘rganayotgan qandlar bilan struktur bog‘liq bo‘lgan glitserin aldegidini standart sifatida qabul qildi. U *intuitiv* ravishda (+)-izomerga A absolyut konfiguratsiyani taklif qildi va uni D (*dexrogurus* – o‘ngga buruvchi) harfi bilan belgilandi; tegishli ravishda (-)-izomerga B-absolyut konfiguratsiya taklif qilindi va u L (*laevogyrus* – chapga buruvchi) harfi bilan belgilanadi:



Rentgenostruktur tahlil usulidan foydalanib o‘tkazilgan keyingi tadqiqotlar Fisher takliflarining to‘griligini isbotladi.

Standart tanlab olingandan so‘ng, unga qarab boshqa birikmalar absolyut konfiguratsiyalarini aniqlash uchun imkoniyat tug‘iladi. Optik faol moddalarni glitserin aldejadi bilan taqqoslash, C\* atomi ishtiroy qilmaydigan kimyoviy reaksiyalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, (+)-glitserin aldegidini HgO bilan oksidlaganda (-)-glitserin kislota hosil bo‘ladi. Bu reaksiyada asimmetrik atom

ishtirok qilmaganligi uchun, konfiguratsiya o‘zgarishining ehtimolligi juda kam. Demak, (-)-glitserin kislotasi D-qatorga mansub:




Shunday qilib, konfiguratsiyasi o‘ngga buruvchi glitserin aldegidi konfiguratsiyasiga o‘xshash bo‘lgan optik faol moddalar D-qator, konfiguratsiyasi chapga buruvchi glitserin aldegidi konfiguratsiyasiga o‘xshash bo‘lgan optik faol moddalar esa L-qator moddalari deb ataladigan bo‘ldi.

### R,S-nomenklatura


Fisher D,L-tizimi (D,L-nomenklatura)ning ishlatalishi cheklanganligi, shuningdek 1951-yilda xiral markaz atrofida o‘rinbosarlarning haqiqiy joylashishini aniqlashning rentgenostruktur usuli paydo bo‘lganligi, 1966-yilda R.Kan-K.Ingold-V.Prelog (KIP) R,S-nomenklaturasining yoki ketma-ket katta-kichiklik qoidalalarining yaratilishiga olib keldi. Bu yangi va qulay nomenklatura hozirgi vaqtida Fisher D,L-tizimini amalda siqib chiqardi, lekin D,L-tizim uglevodlar va aminokislotalar uchun hozir ham qo‘llanilmoqda. KIP tizimi optik faol moddani standart modda bilan solishtirish natijasida emas, balki C\* atomi bilan bog‘langan to‘rt o‘rinbosarning muayyan fazoviy ketma-ketlikda joylashishini aniqlashga asoslangan. Masalan, bitta asimetrik markazi bor C\* abde tipidagi birikmaning konfiguratsiyasini aniqlash uchun C\* bilan bog‘langan to‘rtta o‘rinbosar katta-kichikligining kamayib borishi tartibi quyidagicha bo‘lsin:

$$a > b > d > e$$


Endi enantiomerlarni shunday tasvirlaymizki, C\* bilan bog‘langan kichik o‘rinbosar (bizning misolimizda e) kuzatuvchidan uzoqlashgan, qolgan uchtasi esa unga yaqinlashgan bo‘lsin:



O‘rinbosarlar katta-kichikligining kamayib borish tartibi soat mili harakati bo‘yicha borsa xiral markazning konfiguratsiyasi R (lotincha –rectus-o‘ng), soat mili harakatiga qarshi yo‘nalgan bo‘lsa S (lotincha –sinister-chap) simvollar bilan belgilandi:





katta-kichiklik soat mili  
bo'yicha kamayadi




katta-kichiklik soat miliga  
qarshi kamayadi

O'rinbosarlarning katta-kichikligi xiral markaz bilan bevosita bog'langan elementlarning Mendeleyev davriy sistemasidagi tartib raqamlarini taqqoslash orqali aniqlanadi. Tartib raqami nisbatan yuqori bo'lgan atomlar katta hisoblanadi. Izotopda atom massasi katta bo'lgan atom katta sanaladi, ya'ni  $T > D > H$ . Umumlashmagan elektron jufti eng kichik o'rinbosardir. Shunday qilib, o'rinbosarlarning katta-kichikligi qatorda quyidagicha oshib boradi: umumlashmagan elektron jufti  $<H < D < T < Li < B < C < N < O < F < Si < P < S < Cl < Br < J$ .

Brom ftorxlormetan enantiomerlarida xiral markazning konfiguratsiyasi quyidagicha belgilanadi:




O'rinbosarlar birgina atom emas, balki atomlar guruhidan iborat bo'lsa, C\* bilan bog'langan birinchi atomning tartib raqami kattaligini hisobga olinadi. Masalan  $-CH_3$ ,  $-OH$ ,  $-NH_2$ ,  $-SO_3H$  qatori quyidagi tartibda hisoblanadi:




Endi galogenlar va bu qator o'rinbosarlarini ketma-ket katta-kichiklik tartibida qo'yib chiqsak:  $-\overset{53}{I} > -\overset{35}{Br} > -\overset{17}{Cl} > -\overset{16}{SO_3}H > -\overset{9}{F} > -\overset{8}{OH} > -\overset{6}{CH}_3$  qatori hosil bo'ladi.

Fenil guruhi  $C_6H_5$  Kekule strukturalaridan biri holida qaraladi:




Masalan, 1-amino-1-fenil-2metilpropan




fenil guruhi  $(\overset{6}{C}, \overset{6}{C}, \overset{6}{C})$  izopropil guruhi  $(\overset{6}{C}, \overset{6}{C}, \overset{1}{H})$  dan katta, lekin atom raqami katta bo'lgan ga nisbatan kichik. Shuning uchun bu birikmada xiral markaz bilan bog'langan o'rinbosarlar ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:  $-NH_2 > C_6H_5 > C_3H_7 > H$


$C^*$  atomi bilan bevosita bog‘langan o‘rinbosarlarning tartib raqami bir xil bo‘lganda o‘rinbosarlarning eng kattasi ikkinchi qavat atomlarining raqamlari va soniga qarab topiladi, masalan:



Bu oltita o‘rinbosarni ketma-ket katta kichikligining kamayishi tartibida qo‘yib chiqsak:  $-CH_2Cl > -C(CH_3)_3 > -CH(CH_3)_2 > -CH_2OH > -CH_2-CH_3 > -CH_3$  qatori hosil bo‘ladi. Mabodo bunda ham o‘rinbosarlarning kattasini aniqlab bo‘lmasa uchinchi, to‘rtinchi va hokazo qavatlar atomlarining tartib raqamlari va soni yuqoridagidek hisoblanadi. Masalan, quyidagi ikkita radikalni ketma-ketlik qoidasiga asoslanib taqqoslaymiz:





Ikkala radikalda ham 1-C va 2-C atomlari bilan bog‘langan o‘rinbosarlar bir xil (1-C bilan C, H, H; 2-C bilan ham C, H, H) bo‘lib, faqat 3-C bilan bog‘langan o‘rinbosarlar farq qiladi. I radikalda 3-C bilan O, C, H; II radikalda esa Cl, H, H bog‘langan. Xlorning atom raqami kislorodnikidan katta bo‘lganligi uchun II radikal katta hisoblanadi. I radikalning murakkab tuzilganligi, hatto 4-C bilan brom bog‘langanligi ham hech qanday rol o‘ynamaydi. Agar o‘rinbosarning ikkinchi qavatidagi atom qo‘sh bog‘ bilan bog‘langan bo‘lsa, uning tartib raqami ikkiga, uch bog‘ bilan bog‘langan bo‘lsa uchga ko‘paytiriladi:







Yuqoridagi qoidalarni esda saqlab, glitserin aldegidi uchun R,S-izomerlarning tuzilish formulasini yozamiz. Buning uchun o‘rinbosarlarning atom raqamlarini hisoblaymiz:

	I qavat	II qavat
$-\text{O}-\text{H}$	8	1
$-\text{C}=\overset{\text{O}}{\text{O}}$	6	$8+2+1=17$
$-\overset{\text{H}}{\overset{\diagdown}{\text{C}}} \overset{\diagup}{\text{H}}-\text{O}-\text{H}$	6	$1+1+8=10$


Demak, C\* atomi bilan bog‘langan to‘rt o‘rnbosar katta-kichikligining kamayish tartibi quyidagicha:  $-\text{OH} > -\text{CHO} > -\text{CH}_2\text{OH} > -\text{H}$ . Formulani shunday yozish kerakki, kichik o‘rnbosar (H) pastda joylashsin. So‘ngra qolgan o‘rnbosarlar katta-kichikligining kamayish tartibi aniqlandi. Bu tartib (R)-glitserin aldegidi uchun soat mili bo‘yicha, (S)-glitserin aldegidi uchun esa unga teskari yo‘naladi:




Proyekcion formulalarda kichik o‘rnbosarni pastda yozish uchun konfiguratsiyani o‘zgartirmaydigan usullarni qo‘llab, o‘rnbosarlar o‘rni almashtiriladi. Proyekcion formulalarni o‘zgartirmoq oson emas, ayniqsa xiral markazlari ko‘p birikmalarda. Shuning uchun Moskva Davlat universiteti professori V.M.Potapov va boshqalar proyekcion formulalarni o‘zgartirmay ya’ni kichik o‘rnbosar pastda emas, balki yon tomonda bo‘lganda ham R,S-belgilarni aniqlash usulini taklif qildilar. Bunda kichik o‘rnbosarni inobatga olmasdan, qolgan uchta o‘rnbosarni katta-kichik tartibi aniqlanadi, lekin “teskari” simvol tanlanadi. Katta-kichiklikning kamayishi soat mili bo‘yicha borsa S, soat miliga qarshi borganda R bilan belgilanadi. Masalan:



Molekulada bir nechta asimmetrik atom bo‘lganda optik izomerlar soni  $N=2^n$  ( $N$ -optik izomerlar soni,  $n$ -asimmetrik markazlar soni) formula bo‘yicha hisoblanadi. Masalan, 2,3-dixlorpentanda ikkita xiral markaz borligi uchun optik izomerlari soni ( $N=2^2$ ) 4 ga teng:




Katta-kichiklik qoidalariga asosan 2-C\* uchun o‘rinbosarlarning ketma-ketligi  $\text{Cl} > \text{CH}_3\text{CH}_2\text{CHCl} > \text{CH}_3 > \text{H}$ ; 3-C\* uchun esa  $\text{Cl} > \text{CH}_3\text{CHCl} > \text{CH}_3\text{CH}_2 > \text{H}$ . Shunga asoslanib xiral markazlarni konfiguratsiyasini aniqlaymiz:




Fisher proyeksiyon formulalarida bir xil yoki o‘xshash o‘rinbosarlar (2S, 3R) va (2R,3S) bosh uglerod zanjiri (vertikal chiziqning bir tomonida joylashgan enantiomerlar *eritro*-enantiomerlar, turli tomonlarda joylashgan enantiomerlar (2S,3S) va (2R,3R) esa *treo*-enantiomerlar deyiladi. (*eritro*-va *treo*- old qo‘shimchalari eritroza va treoza qandlarining nomidan olingan). (2S,3R)-va (2R,3S)- shuningdek (2S,3S)- va (2R,3R)-dixlorpentanlar bir-biriga enantiomer hisoblanadi. Bu enantiomerlar bir xil xossalarga ega bo‘lib, faqat qutblangan nur tekisligini o‘ngga yoki chapga burishi bilan farq qiladi. (2S,2R)-dixlorpentan bilan (2S,3S)-va (2R,3R)-dixlorpentanlar, shuningdek (2R,3S)-dixlorpentan bilan (2S,3S)- va (2R,3R)-dixlorpentanlar bir-biriga diastreomerlar hisoblanadi. Diasteomerlar – bir-biriga enantiomer bo‘lmagan stereoizomerlardir. Diasteomerlar bir xil xossalarga ega emas. Ularning suyuqlanish va qaynash haroratlari, eruvchanligi, reaksiyaga kirishish qobiliyati, spektral xossalari va solishtirma buruvchanligi farq qiladi. Bitta diastreomer xiral bo‘lib, qutblangan nur tekisligini burishi, boshqasi esa axiral bo‘lib, burmasligi mumkin.


2-Brom-3-xlorbutanning *eritro*-enantiomerlarida Br va Cl Fisher proyeksiyon formulalaridagi vertikal chiziqning bir tomonida *treo*-enantiomerlarida esa turli tomonida joylashgan:



Ikkita bir xil xiral markazi bor birikmalar stereokimyoсини 2,3-dixlorbutan stereoizomerlari misolida ko‘rib chiqamiz:



2,3-dixlorbutan molekulasida har ikkala xiral markaz to‘rtta turli xil o‘rinbosar ( $-\text{H}$ ,  $-\text{Cl}$ ,  $-\text{CH}_3$  va  $-\text{CHCl}-\text{CH}_3$ ) bilan bog‘langan.  $N=2^n$  formulaga ko‘ra 2,3-dixlorbutanning  $N=2^2=4$  ta stereoisomeri bo‘lishi kerak. Har bir xiral markaz bilan bog‘langan o‘rinbosarlarni turlichcha joylashtirib, quyidagi variantlarni tuzamiz va o‘rinbosarlar katta-kichikligining kamayish ketma-ketligi ( $-\text{Cl} > -\text{CHCl}-\text{CH}_3 > -\text{CH}_3 > -\text{H}$ ) dan foydalanib, xiral markazlar konfiguratsiyasini aniqlaymiz:



Bu to‘rtta formuladan III va IV bir-birini takrorlaydi. Formulalarning bir xilligi yoki bir-biridan farq qilishini isbotlash uchun ulardan birini chizma tekisligida  $180^\circ$ ga aylantiriladi va boshqa formula bilan taqqoslanadi. Agar IV formulasini chizma tekisligida  $180^\circ$ ga aylantirilsa (bu katta mil bilan ko‘rsatilgan) uning barcha o‘rinbosarları III formula o‘rinbosarları ustida tushadi (to‘la qoplaydi). Demak, III va IV formulalar bir-biriga to‘g‘ri (mos) keladi, boshqacha aytganda ular bir xil bo‘lib, bitta stereoisomerga tegishli.

I, II va III formulalar bir-biriga to‘g‘ri (mos) kelmaydi, chunki chizma tekisligida  $180^\circ$ ga aylantirilganda o‘rinbosarlar bir-birini to‘la qoplasmaydi. Shuning uchun ular uchta boshqa-boshqa stereoisomerlarga tegishlidir.  $(2S, 3S)$ - va  $(2R, 3R)$ -dixlorbutanlar *treo*-qatori stereoisomerlari bo‘lib, bir-biriga enantiomer hisoblanadi.  $(2S, 3R)$ -dixlorbutan esa simmetriya tekisligiga ega bo‘lgani uchun optik faol emas. Bu stereoisomer *mezo*-shakl (*mezo*-birikma) deyiladi.

### **3-mavzu: Organik kimyoda yangi reaksiyalar mexanizmi. Nozik organik sintez. Metall kompleks kataliz.**

#### **REJA:**



1. Almashinish, birikish va kondensasiya reaksiyalarigi yangiliklar.

2. Yangi nitrozofenollarning sinezi va ulvrning analitik kimyoda ishlatalinishi.
2.  $S_N$  reaksiyalar
3.  $S_E$  reaksiyalar
4. To'yingan uglerod atomidagi vodorodning elektrofil almashinish reaksiyalari

Organik reaksiyalar yo'nalishi, mexanizmi va molekulyarligiga ko'ra sinflanadi. Yo'nalishiga ko'ra organik reaksiyalar to'rt turga bo'linadi:

### **1. O'rın olish** reaksiyaları

Organik birikmalarning barcha sinf va qatorlari uchun xos bo'lganbureaksiyalardamuayyanatomyokiatomlarguruhiboshqaatomyokiatomlarguruhigaalmashinadi:







O'rın olish reaksiyaları almashinish reaksiyaları deb ham yuritiladi.

O'rın olish reaksiyaları lotincha "S" harfi bilan belgilanadi (inglizcha "**substitution**"- o'rın olish).

### **2. Birikishreaksiyaları**


Molekulasida uglerod-uglerod, uglerod-kislorod, uglerod-azot, azot-azot va hokazo karrali (qo'sh yoki uch) bog'lar, shuningdek, erkin elektron juftlari yoki vakant orbitallari bor organik birikmalargina birikish reaksiyalariga kirisha oladi:



Birikish reaksiyalari lotincha “A” yoki Ad simvoli bilan belgilanadi (inglizcha “**addition**” - birikish).


### 3. Ajralish reaksiyalari.

Birikishga teskari bo‘lgan bu jarayonda organik birikmadan oddiy yoki murakkab moddalar ajraladi va aksariyat hollarda to‘yinmagan birikmalar hosil bo‘ladi:



Ajralish reaksiyalari lotincha “E” harfi bilan belgilanadi (inglizcha “**elimination**”-ajralish).

4. Qayta guruhlanish (*izomerlanish*) larturli reaksiyalar jarayonida borishi mumkin. Qayta guruhlanish reaksiyalarida molekuladagi atom yoki atomlar guruhlarining o‘rni o‘zgaradi:




Qayta guruhlanishlar lotincha “R” harfi bilan belgilanadi (inglizcha “**rearrangement**”-qayta guruhlanish).

### Organik reaksiyalarning mexanizmiga(bog‘larning uzilishtipi yoki reagentlarning xarakteriga) ko‘ra sinflanishi

Reaksiyaning mexanizmi deganda barcha bosqichlarda uning qanday borishini to‘la bilib olish tushuniladi. Mexanizmlarni o‘rganishda eski kovalent bog‘larning uzilishi va yangi kovalent bog‘larning hosil bo‘lishi qanday tartibda, qaysi faol zarrachalarning hosil bo‘lishi orqali borishi aniqlanadi. Reaksiya jarayonida substrat va reagent orasida valent elektronlar qayta taqsimlanadi. Substrat molekulasidagi kovalent bog‘ning uzilish tipiga qarab organik reaksiyalar gomolitik (radikal) va geterolitik (ionli) reaksiyalarga bo‘linadi.

Radikal reaksiyalar (R) kovalent bog‘larning gomolitik uzilishi bilan boradi. Bu reaksiyalarda erkin radikallar (toq elektroni bor elektroneytral atomlar yoki

atomlar guruhi) reagent hisoblanadi. Yangi kovalent bog‘ hosil bo‘lishida reagent va substratning har ikkalasidan bittadan elektron qatnashadi:



Elektromanfiyliyi yaqin atomlardan tuzilgan (qutbsiz yoki kuchsiz qutblangan C-C, N-H, C-H bog‘lari bor) organik birikmalar yuqori harorat, yuqori energiyali nur (UB nur, radioaktiv nurlanish) ta’sirida, shuningdek, erkin radikallarga oson parchalanadigan peroksidlar ishtirokida radikal reaksiyalarga kirishadi:



Bu reaksiyalar qutbsiz erituvchilarda boradi va erkin radikallar bilan reaksiyaga oson kirishadigan ingibitorlar (kislород, iod, gidroxinon va hokazo) ta’sirida juda sekinlashadi yoki butunlay to‘xtaydi. ***Ionliyokiqutbli*** reaksiyalar kovalent bog‘larning geterolitik uzelishi bilan boradi. Kuchli qutblangan va oson qutblanadigan bog‘lar geterolitik uzelishga moyil bo‘ladi. Reagentlar xarakteriga qarab ionli reaksiyalar nukleofil (N) va elektrofil (E) reaksiyalarga bo‘linadi. ***Nukleofil*** (yadroni sevadigan) reagentlar deb, taqsimlanmagan elektron juftini yoki qutbli bog‘ning ikkita bog‘lovchi elektronini reaksiyalarda oson berib, elektrofil bilan bog‘ hosil qiladigan elektronondonor zarrachalarga aytildi. Bularga taqsimlanmagan elektron juftini tutgan anionlar, ion juftlari va kuchli ionlanishga moyil bo‘lgan qutbli neytral molekulalar kiradi. Atomlari taqsimlanmagan elektron juftlari tutgan yoki nisbatan kichik ionlanish energiyasiga ega bo‘lgan barcha neytral birikmalar ham nukleofil reagentlarga kiradi. Nukleofil atomining turiga qarab nukleofil reagentlar quyidagicha sinflanadi:

H-nukleofillar – H:⁻ (gidrid-ion), Li⁺AlH₄⁻, Na⁺BH₄⁻,

N-nukleofillar – R₂N:⁻M⁺ (metall amidlari va ularning hosilalari),

R₃N:,

C-nukleofillar – R₃:⁻M⁺ (karbanionlar), Rδ⁻–Mδ⁺ (metallorganik birikmalar), alkenlar, alkadiyenlar, arenlar,


O-nukleofillar - H : $\ddot{\text{O}}^-$ :M<sup>+</sup>, R : $\ddot{\text{O}}^-$ :M<sup>+</sup>, H— $\ddot{\text{O}}$ —H, R— $\ddot{\text{O}}$ —R,

S-nukleofillar -  $\text{H}:\ddot{\text{S}}^-\text{M}^+$ ,  $\text{R}:\ddot{\text{S}}^-\text{M}^+$ ,  $\text{H}-\ddot{\text{S}}-\text{H}$ ,  $\text{R}-\ddot{\text{S}}-\text{R}$ ,

P-nukleofillar - R<sub>3</sub>P:,

Galogenid-ionlar - : $\ddot{\text{F}}$ <sup>-</sup>:M<sup>+</sup>, : $\ddot{\text{Cl}}$ <sup>-</sup>:M<sup>+</sup>, : $\ddot{\text{Br}}$ <sup>-</sup>:M<sup>+</sup>, : $\ddot{\text{I}}$ <sup>-</sup>:M<sup>+</sup>.

Nukleofil reagentlar organik substratning musbat reaksiyon markaziga hujum qiladi:



**Elektrofil** (elektronni sevadigan) reagentlar nukleofil zarracha bilan uning elektron jufti hisobiga bog‘ hosil qiladigan, elektronakseptor xossasiga ega musbat zaryadlangan zarrachalardir. Elektrofil reagentlarga bo‘sh orbitali bor erkin kationlar, ion juftlari, kuchli qutblangan va oson ionlanadigan neytral birikmalar, elektron orbitali to‘lmagan atomlar yoki elektronga moyilligi kuchli neytral molekulalar kiradi:

H-elektrofillar –  $\text{H}^+ \text{X}^-$  ( $\text{H}^+ \text{I}^-$ ,  $\text{H}^+ \text{Br}^-$ ,  $\text{H}^+ \text{Cl}^-$ ,  $\text{H}^+ \text{O}^- \text{SO}_3\text{H}$  va boshqa kuchli kislotalar),

C-elektrofillar –  $R_3C^+X^-$  (karbkationlar),  $R_3C^{\delta+} - X^{\delta-}$ ,  $R_2C^{\delta+} = X^{\delta-}$  (kuchli qutblangan bog‘ tutgan birikmalar), elektronga moyilligi kuchli xinonlar,

B-elektrofillar –  $\text{BF}_3$ ,  $\text{BCl}_3$ ,  $\text{BR}_3$ ,

O-elektrofillar –  $\text{R}-\text{O}^{\delta+}-\text{X}^{\delta-}$ ,  $\text{R}-\text{O}-\text{O}-\text{R}$  (peroksidlar),


N-elektrofillar –  $^{+}\text{NOX}^{-}$  (nitrozoniy tuzlari),  $^{+}\text{NO}_2\text{X}^{-}$  (nitroniy tuzlari),  $\text{R}_2-^{+}\text{N}_2\text{X}^{-}$  (diazoniy tuzlari),  $\text{R}_2\text{N}^{\delta+}-\text{X}^{\delta-}$ ,

S-elektrofillar – R-S<sup>δ+</sup>-X<sup>δ-</sup>, HSO<sub>3</sub><sup>+</sup>X<sup>-</sup>, SO<sub>3</sub><sup>2-</sup>


**Galogenlar** = F<sub>2</sub>, Cl<sub>2</sub>, Br<sub>2</sub>, I<sub>2</sub>,

M-elektrofillar –  $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{AlBr}_3$ ,  $\text{FeBr}_3$ ,  $\text{FeCl}_3$ .

Elektrofil reagentlar organik substratning manfiy qutblangan markaziga hujum qiladi:



Qutblangan molekulalar va kimyoviy bog‘larda doimo ikkita (nukleofil va elektrofil) reaksiyon markaz bo‘ladi:



Demak, shunga mos ravishda geterolitik reaksiyaning borishi uchun ikkita (nukleofil va elektrofil) reagent bo‘lishi kerak.

Nukleofil reaksiyalarda elektrofil zarracha yoki elektrofil markaz nukleofil zarrachalar bilan, elektrofil reaksiyalarda esa nukleofil zarracha yoki nukleofil markaz elektrofil zarrachalar bilan reaksiyaga kirishadi.

Shunday qilib, organik kimyoda S, A, E belgilar va R, N, E indekslar bilan ifodalanadigan to‘qqiz turdag'i reaksiyalar farqlanadi;

Reaksiyalar:	radikal	nukleofil	elektrofil
O‘rin olish	$S_R$	$S_N$	$S_E$
Birikish	$A_R$	$A_N$	$A_E$
Ajralish	$E_R$	$E_N$	$E_E$

### ***Reaksiyalarning molekulyarligiga ko‘ra sinflanishi***

Reaksiyaning molekulyarligi deganda uning tezligini belgilovchi bosqichda kovalent bog‘lari o‘zgaradigan moddalar soni tushuniladi. Molekulyarligiga ko‘ra organik reaksiyalar mono-, bi-, tri- va polimolekulyar bo‘lishi mumkin.

Aytaylik, reaksiya natijasida A modda molekulasi X ga aylandi yoki ( $X+Y$ ) ga parchalandi. Bunday reaksiyalar monomolekulyar deyiladi, chunki reaksiya tezligini belgilovchi bosqichda faqat bitta (A) modda molekulasi ishtirok qiladi va reaksiyaning tezligi A moddaning konsentratsiyasiga bog‘liq:

$$V = K [A]$$

A moddaning ikki molekulasi yoki A va B moddalar molekulalari qisqa muddatli to‘qnashuv natijasidagina bir-biri bilan reaksiyaga kirishsa (to‘qnashuvlar nazariyasi), bunday reaksiyalar bimolekulyar deyiladi va ularning tezligi ikkita moddaning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi:

$$V = K [A]^2 \quad \text{yoki} \quad V = K[A][B]$$

Trimolekulyar reaksiyalarning tezligi uchta (masalan, A, B va C) moddaning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi:

$$V = K [A][B][C]$$

To‘qnashuvlar nazariyasiga ko‘ra ayni bir vaqtida A, B va C moddalar molekulalarining to‘qnashish ehtimoli juda kichik. To‘rtta modda molekulalarining reaksiya jarayonida o‘zaro to‘qnashish ehtimoli esa yanada kam bo‘ladi. Shuning

uchun trimolekulyar va ayniqsa polimolekulyar reaksiyalar juda kam uchraydi.

Qaytmasligi yoki qaytarligidan qat’iy nazar mono-, bi- va trimolekulyar reaksiyalar **elementar** reaksiyalar deyiladi. Elementar qaytmas reaksiyalardan tashqari boshqa barcha reaksiyalar esa kompleks (murakkab) reaksiyalarga kiritiladi.

### Reaksiyalarning faollashtirish tipiga ko‘ra sinflanishi

Katalizorsiz boradigan reaksiyalarga **nokatalitik** reaksiyalar deyiladi. Bu reaksiyalar faqat haroratni oshirish orqali tezlashtiriladi va shuning uchun **termik reaksiyalar** deb ham yuritiladi. Faollashtirishning bu usuli  $t^{\circ}$  yoki  $\Delta$  bilan belgilanadi.


Nokatalitik reaksiyalarda kuchli qutblangan yoki zaryadlangan zarrachalar dastlabki reagentlar hisoblanadi.

Katalizatorlar ishtirokida boradigan reaksiyalarga **katalitik reaksiyalar** deyiladi.

Nurlantirish bilan faollashtiriladigan reaksiyalarga **fotokimyoviy reaksiyalar** deyiladi. Faollashtirishning bu turi  $h\nu$  bilan belgilanadi.

### Elektrofil birikish reaksiyalari

Alkenlar qo‘sish bog‘iga elektrofil birikish reaksiyalarini ko‘pincha  $\pi$ -kompleksning hosil bo‘lish bosqichidan boshlanadi. Bunda alken molekulasi  $\pi$ -donor hisoblanadi. Qutblangan reagent  $E^{\delta+}-Nu^{\delta-}$  ning alken qo‘sish bog‘iga birikishi  $Ad_E$  – mexanizmi bo‘yicha boradi. Elektrofil ( $E^{\oplus}-N^{\ominus}$ ) ning qo‘sish bog‘ga birikishidan  $\pi$ -kompleks hosil bo‘ladi. Sekin boradigan va reaksiya tezligini belgilaydigan bosqichda  $\pi$ -kompleks reaksiyon qobiliyatli karbkation ( $\sigma$ -kompleks)ga aylanadi. Karbkation nukleofil reagent ( $Nu^{\ominus}$ ) ni tez biriktirish hisobiga barqarorlashadi:



Monogalogenalkanlar reaksiyaga kirishish qobiliyati kuchli bo‘lgan organik moddalar jumlasiga kiradi. Ular uchun ayniqsa nukleofil almashinish va ajralish reaksiyalari xarakterlidir.

## Nukleofil almashinish reaksiyalari

Monogalogenalkanlarning nukleofil almashinish reaksiyalari ikki xil mexanizm ( $S_N1$  va  $S_N2$ ) bo'yicha boradi. Bu mexanizmlarni monogalogenalkanlarning gidrolizlanish reaksiyasi misolida ko'rib chiqamiz.




Ingliz olimlari Ingold va Xyuz metil bromid va uning gomologlarini etil spirtining suvdagi 80% li eritmasida gidroksil ionlari ishtirokida gidrolizlanish tezligini o'rganib, nukleofil almashinish reaksiyasining tezligi va mexanizmi galogen atomi bilan bog'langan uglevodorod radikallarining tuzilishiga qarab turlicha bo'lishini aniqladilar (11-jadval).

11 -jadval

### Alkil bromidlarning gidrolizlanish tezligi

Alkil bromid	Gidrolizlanishning nisbiy tezligi	
	$S_N1$	$S_N2$
$CH_3-Br$	0,349	2140
$CH_3-CH_2-Br$	0,139	171
$(CH_3)_2CH-Br$	0,237	4,75
$(CH_3)_3C-Br$	1010	-

Jadvaldagagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, metilbromidning gidrolizlanishi asosan  $S_N2$  mexanizm bo'yicha boradi. Manfiy zaryadli gidroksil guruhi metil bromid molekulasining qisman musbat zaryadlangan uglerod atomiga brom joylashgan tomonga qarama-qarshi tomondan hujum qilib, oraliq (o'tish) holatini hosil qiladi:




O'tish holatida uglerod qisman gidroksil bilan ham, brom bilan ham bog'langan. Unda C-OH bog'i hali to'liq hosil bo'lмаган va C-Br bog'i esa butunlay uzilgan emas.  $HO^{\delta-}$  va  $Br^{\delta-}$  bir-biridan maksimal masofada joylashgan.  $HO^{\delta-}$ , uglerod va  $Br^{\delta-}$  bir chiziqda, uchta

vodorod atomi va uglerod esa bir tekislikda yotadi. Barcha C-H bog'lar orasidagi burchak bir xil, ya'ni  $120^{\circ}$  ga teng. Demak, o'tish holatida uglerod  $sp^2$ -gibridlangan atom xarakteriga ega bo'ladi. So'ngra HO $^{\delta-}$  yaqin kelib, haqiqiy C-OH kovalent bog'ini hosil qiladi, uglerod atomi bilan brom o'rtasidagi bog' esa butunlay uzilib, uglerod atomi  $sp^3$ -gibridlangan holatiga qaytadi. O'tish holatining hosil bo'lishi uchun maksimal energiya (faollashish energiyasi) talab qilinadi ( $S_N2$ -tipidagi reaksiyaning energetik diagrammasi, 27-rasm).

Yangi modda ( $CH_3OH$ ) hosil bo'lishida esa tizimning energiyasi dastlabki ( $H\bar{O}^-$ : bilan  $CH_3Br$  bir-biridan uzoqda turgandagi) holat energiyasiga nisbatan kamayadi. C-Br bog'ining uzilishi uchun zarur bo'lgan energiyaning bir qismi yangi C-OH bog'i hosil bo'lishida ajraladigan energiya hisobiga qoplanadi. Bu reaksiyaning tezligi ikkita zarracha ( $HO^-$  va  $CH_3Br$ ) ning konsentratsiyasiga bog'liq:

$$V = K[CH_3Br][:\bar{O}H]$$




Reaksiya koordinati

27-rasm.  $S_N2$ -tipidagi reaksiyaning energetik diagrammasi.

Shuning uchun bu mexanizm  $S_N2$ -bimolekulyar nukleofil almashinish deyiladi.  $S_N2$ -reaksiyalar sinxron reaksiyalar hisoblanadi. Chunki ularning kechishida eski  $\sigma$ -bog'ning uzilishi va yangi  $\sigma$ -bog'ning hosil bo'lishi bir vaqtida sodir bo'ladi.


Kvant mexanikasi nuqtai nazaridan  $S_N2$ -mexanizmini quyidagicha tushuntirish mumkin. Substrat ( $CH_3Br$ ) da uglerod atomi tetraedrik konfiguratsiyaga ega. O'tish holati hosil bo'lishida uglerod atomi orbitallarining tetraedrik ( $sp^3$ -)gibridlanishi  $sp^2$ -gibridlanishga o'tadi. Gibridlanmagan p-orbitallar esa C-H bog'lar joylashgan tekislikka perpendikulyar tekislikda joylashadi.




28- rasm. O‘tish holatining hosil bo‘lish sxemasi.

p-orbitalning bir pallasi bilan hujum qiluvchi nukleofil reagent ( $\text{:}\bar{\text{O}}\text{H}$ ) boshqa pallasi bilan esa chiqib ketuvchi guruh ( $\text{:}\bar{\text{Br}}$ ) bog‘lanadi. Reaksiyaning keyingi bosqichida brom anion ( $\text{:}\bar{\text{Br}}$ ) sifatida chiqib ketadi, nukleofil reagent ( $\text{:}\bar{\text{O}}\text{H}$ ) esa p-orbitalga sinxron bog‘lanadi.

Asimmetrik C atomi bor optik faol moddalarning  $\text{S}_{\text{N}}2$ -reaksiyalari substrat konfiguratsiyasining o‘zgarishi bilan boradi. Masalan, optik faol  $(-)$ -2-bromoktan  $\text{S}_{\text{N}}2$ -reaksiya sharoitida  $\text{NaOH}$  bilan reaksiyaga kirishsa,  $(+)$ -oktanol-2 hosil bo‘ladi:




Erituvchining qutbliligi  $\text{S}_{\text{N}}2$ -reaksiyalar tezligini bir muncha kamaytiradi.  $\text{S}_{\text{N}}2$ -reaksiyaning tezligi asosan fazoviy omillarga, ya’ni o‘rinbosarlar hajmining katta-kichikligiga bog‘liq. Metil guruhining hajmi vodorodga nisbatan katta bo‘lganidan, ular C atomi yaqinida fazoviy to‘siq hosil qiladi. Ularning soni oshgani sari to‘siq ham kuchayadi va reaksiya tezligi kamayadi. Shuning uchun galogenalkanlarning  $\text{S}_{\text{N}}2$ -reaksiyalarga kirishish qobiliyati quyidagi tartibda pasayib boradi:



Uchlamchi galogenalkanlarning gidrolizlanishi  $\text{S}_{\text{N}}1$ -mexanizmda bormaydi. Chunki uchta katta hajmli alkil guruhlari molekulaning galogenga qarama-qarshi bo‘lgan tomonini to‘sib,  $\text{:}\bar{\text{O}}\text{H}$  ning qisman musbat zaryadlangan uglerod atomiga yaqinlashuviga yo‘l qo‘ymaydi. Uchlamchi galogenalkanlarning ishqoriy muhitda gidrolizlanishi  $\text{S}_{\text{N}}1$ -

mexanizmida boradi. Bu mexanizmni uchlamchi butil bromidning gidrolizi misolida ko'rib chiqamiz.


Reaksiya qutbli erituvchi ishtirokida ikki bosqichda boradi. Reaksiyaning umumiyligi tezligini belgilovchi sekin boradigan birinchi bosqichda uchlamchi butil bromidning molekulasi uchlamchi butil karbaktioni va bromid-ionga geterolitik parchalanadi. Bu jarayon maksimal energiyani talab qiladigan oraliq holatning hosil bo'lishi orqali amalga oshadi (29-rasm).




29-rasm. S<sub>N</sub>1-tipidagi reaksiyaning energetik diagrammasi.

Oraliq holatda C-Br bog'i uzayib, elektron jufti chiqib ketuvchi guruh (brom) ga tomon asta-sekin siljiydi. So'ngra ion jufti hosil bo'ladi. Ion juftining ionlarga parchalanishi qutbli erituvchining molekulalari ta'sirida amalga oshadi. Ionlarning solvatlanishi energiya ajralishi bilan boradi. Reaksiyaning birinchi bosqichi natijasida solvatlangan ionlar hosil bo'ladi. S<sub>N</sub>1 reaksiyalar faqat qutbli erituvchilardagina oson kechadi.

Birinchi (sekin) boradigan bosqichda faqat bitta modda (uchlamchi butil bromidi) molekulasida kovalent bog'uzilgani uchun bunday mexanizmni monomolekulyar deyiladi:




Tez boradigan ikkinchi bosqichda karbokation nukleofil bilan reaksiyaga kirishib, uchlamchi butil spirtini hosil qiladi:



Bu ikki bosqichli reaksiyaning tezligi faqat uchlamchi butil bromidning konsentratsiyasiga (uning ionlanish tezligiga) bog'liq bo'lib,  $\text{:}\bar{\text{O}}\text{H}$  ionlarining konsentratsiyasiga bog'liq emas:

$$V = K [(\text{CH}_3)_3\text{CBr}]$$


$S_N1$ -reaksiyalarda eski bog'ning uzilishi va yangi bog'ning hosil bo'lishi bir vaqtida sodir bo'lmaydi. Shuning uchun bu reaksiyalar asinxron reaksiyalar deyiladi. Ideal holatda asimmetrik uglerod atomida boradigan  $S_N1$  reaksiyalari natijasida stereoizomerlar aralashmasi (ratsemat) hosil bo'ladi. Chunki reaksiyaning birinchi bosqichida hosil bo'ladigan karbokation tekis tuzilgan bo'lib, uning orbitallari  $sp^2$ -gibridlangan. Bu karbokation markazida uglerod atomi, uchlarida esa uchta o'rribosar joylashgan tekis uchburchak ko'rinishiga ega. Reaksiyaning ikkinchi bosqichida ishtirok etadigan nukleofil reagent yoki erituvchining molekulasi karbokationga har ikkala tomondan bir xil ehtimollik bilan hujum qiladi. Natijada bir-biriga enantiomer (optik antipod) bo'lgan ratsemik aralashma ko'rinishida reaksiya mahsulotlari olingani sababli, reaksiya mahsulotining optik faolligi yo'qoladi, chunki reaksiyaning I mahsulotida uchlamchi alkil bromidining konfiguratsiyasi o'zgargan, II da esa konfiguratsiya saqlangan:




Karbokationning hosil bo‘lish bosqichi  $S_N1$ -reaksiyaning tezligini belgilovchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun ham galogenalkanlarning bu reaksiyaga kirishish qobiliyati asosan shu bosqichda hosil bo‘ladigan karbkationlarning barqarorligiga bog‘liq. Karbkationning barqarorligi qanday tartibda o‘zgarsa, monogalogenalkanlarning  $S_N1$ -reaksiyalarga kirishish qobiliyati ham shunday tartibda o‘zgaradi.

	$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\   \\ \text{H}_3\text{C}-\text{C}-\text{Br} \\   \\ \text{CH}_3 \end{array}$	$>$	$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\   \\ \text{H}_3\text{C}-\text{CH}-\text{Br} \\   \\ \text{CH}_3 \end{array}$	$>$	$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\   \\ \text{H}_3\text{C}-\text{CH}_2-\text{Br} \end{array}$	$>$	$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\   \\ \text{H}_3\text{C}-\text{Br} \end{array}$
reaksiyaning nisbiy tezligi	$10^8$		45			1,7	1,0


$S_N1$ -reaksiyalarining tezligiga erituvchining qutbliligi yoki ionlantiruvchi kuchi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hosil bo‘lgan ionlarning erituvchi molekulalari tomonidan solvatlanishi  $S_N1$ -reaksiyaning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Solvatlanishda erituvchi (suv, spirt, aminlar) umumlashmagan elektron juftlarining orbitallari bilan  $C^+$  erkin orbitalining qoplanishi natijasida va ionlar bilan erituvchi o‘rtasida labil kimyoviy bog‘lar vujudga keladi:



Erituvchi qancha qutbli bo‘lsa, uning solvatlantirish qobiliyati shuncha kuchli va galogenalkan molekulasining ionlanishi shuncha tez bo‘ladi. Shuning uchun  $(CH_3)_3C\text{-Br}$  ning gidrolizlanishida erituvchi sifatida 80 % li etil spirti o‘rniga qutbliligi kuchli bo‘lgan suv ishlataladi.  $S_N1$ -reaksiyalar birinchi bosqichda hosil bo‘ladigan karbkationlarning qayta guruhlanishi bilan kechadi. Masalan, neopentil bromid etilat-ion bilan  $S_N2$ -mexanizm bo‘yicha reaksiyaga kirishganida etilneopentil efir, etil spirti bilan  $S_N1$ - mexanizmda reaksiyaga kirishganida esa faqat qayta guruhlanish mahsulotlari hosil bo‘ladi:




Faqat  $S_N1$ -yoki  $S_N2$ -mexanizmda boradigan reaksiyalar juda kam uchraydi. Ko‘pchilik nukleofil almashinish reaksiyalari oraliq tipga mansub, ya’ni substrat molekulasining bir qismi  $S_N1$ -mexanizmda reaksiyaga kirishsa, boshqa qismi  $S_N2$ -mexanizm bo‘yicha reaksiyaga kirishadi. Reaksiya mahsulotlarining xarakteri va unumi uning mexanizmiga bog‘liq bo‘lgani sababli sharoitni tanlab, reaksiyanı yo‘naltira olish juda muhimdir. Endi monogalogenalkanlarning nukleofil almashinish reaksiyalariga misollar keltiramiz:



Yuqoridagi reaksiyalar sxemasidan ko‘rinib turibdiki, galogenalkanlar yordamida organik birikmalarning aksariyat sinflariga mansub bo‘lgan moddalarni sintez qilish mumkin:


#### *Galogenalkanlarni qaytarish*

Monogalogenalkanlar katalizatorlar (Pd, Pt, Ni ) ishtirokida vodorod bilan qaytarilganda yoki iodid kislota bilan qizdirilganda alkanlar hosil bo‘ladi:




#### *Galogennning metall atomiga almashinishi*

Galogenalkanlar suvsiz dietil efirda litiy, natriy, rux, magniy singari metallar bilan reaksiyaga kirishib, metallorganik birikmalarni hosil qiladi:




#### *Ajralish reaksiyalari*


Monogalogenalkanlardan vodorod galogenidlarning ajralishi natijasida alkenlar hosil bo‘ladi. Nukleofil almashinish reaksiyalari singari galogenalkanlarning ajralish reaksiyalari ham ikki xil mexanizm ( $E_N1$  va  $E_N2$ ) bo‘yicha borishi mumkin.  $E_N1$ -reaksiyalar ikki bosqichda boradi. Reaksiyaning tezligini belgilovchi va sekin boruvchi birinchi bosqichda bitta modda (uchlamchi galogenalkan) molekulasi qatnashadi va uning ionlanishidan karbokation hosil bo‘ladi:




Tez boradigan ikkinchi bosqichda esa karbkation protonni ajratib, alkenga aylanadi:




$S_N1$ - va  $E_N1$ -reaksiyalarning tez boradigan ikkinchi bosqichi turli yo‘nalishda amalga oshadi. Hujum qiluvchi reagent o‘z elektron juftini protonga bersa ajralish reaksiyasi boradi. Buning natijasida karbkationdagi  $\beta$ -uglerod atomi protonini yo‘qotib alken hosil bo‘ladi.  $S_N1$ -reaksiyalari kabi  $E_N1$ -reaksiyalarida ham reaksiyaning tezligi faqat uchlamchi galogenalkanning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘lib,  $:\ddot{\text{O}}\text{H}$  ionlarining konsentratsiyasiga bog‘liq emas.  $E_N1$ -mexanizm bo‘yicha reaksiyalarning borishi uchun ionlantiruvchi erituvchi bo‘lishi kerak.  $E_N1$ -mexanizm bilan asosan uchlamchi galogenalkanlarning ajralish reaksiyalari boradi. Odatda  $E_N1$ -reaksiyalar bilan bir vaqtida  $S_N1$ -reaksiyalar ham amalga oshadi va natijada alkenlar bilan birga spirtlar ham hosil bo‘ladi. Monomolekulyar almashinish va ajralish mahsulotlarining nisbati esa reaksiyani o‘tkazish sharoitiga bog‘liq. Masalan, 2-metil-2-xlorbutan turli reagentlar bilan reaksiyaga kirishganida quyidagicha mahsulotlar hosil bo‘ladi:



Birlamchi galogenalkanlarning ajralish reaksiyalari asosan  $E_N2$ -mexanizmda boradi.  $E_N2$ -mexanizm bo'yicha boradigan reaksiyalarning tezligi galogenalkan va asosning konsentratsiyasiga proporsionaldir.  $E_N2$ -reaksiya oraliq holatning hosil bo'lishi orqali bir bosqichda quyidagicha kechadi:



Odatda ayni bir vaqtida bimolekulyar ajralish bilan birga, bimolekulyar almashinish ham boradi:



Reaksiya mahsulotlarining nisbati uni o'tkazish sharoiti bilan belgilanadi. Galogenalkanlarga suv yoki ishqorlarning suvdagi suyultirilgan eritmasini ta'sir ettirganda asosan spirtlar, qo'shimcha mahsulotlar sifatida esa alkenlar hosil bo'ladi. Ishqor konsentratsiyasini oshirganda reagentning asos xossalari kuchayadi va shuning uchun hosil bo'ladigan alkenlarning unumi ortadi. Reagent sifatida ishqorning spirtdagi eritmasi ishlataliganda asosan alkenlar hosil bo'ladi. Chunki ishqorning spirtdagi eritmasida uncha katta bo'lмаган miqdorda juda kuchli asos – alkoksianion ( $\text{R}-\text{O}:^-$ ) bo'ladi. Reaksiyaning harorati oshirilganda ham alkenlarning unumi ortadi.

**4-mavzu: Organik birikmalarni individual holatda ajratib olish.**

## **Fizik-kimyoviy usullar yordamida birikmalarining tuzilishini aniqlash.**

### **R E J A:**

1. Toza modda olinishida Fizik-kimyoviy usullarining ahamiyati.
2. Modda tuzilishini aniqlashda kompleks yondashuv.
3. Refraktometriya, xromatografiya, spektral usullar.
4. IQ, PMR spektroskopiya, massspektrometriya
5. Rentgen tuzilish analizi.

Fizik-kimyoviy usullar yordamida moddalar tabiiy xomashyo yoki sintetik aralashmadan ajratib olinadi va tozalanadi. Bunda Ekstraksiya va xromatografiya usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Toza modda olingandan so'ng uning kimyoviy tuzilishi kimyoviy va uskunaviy usullarda komplek tarzda o'r ganiladi.

## **MASS-SPEKTROMETRIYA**

Mass-spektrometriyaning nazariy, amaliy asoslari va usuli hamda uskunalari D.D. Tompson tomonidan 1912-yilda yaratildi. Uning shogirdi F. Aston 1918-yilda ion oqimi fokuslanish darajasini oshirib, o'zi yaratgan mass-spektrografida elementlarning izotoplarini aniqladi. F. Aston bilan bir paytda Chikagoda A. Dempster birinchi mass-spektrometrni yaratdi. Bu uskunadagi ionlanish kamerasiga nisbatan perpendikulyar yo'nalishda magnit maydoni qo'yildi va ionlar oqimi elektr usullar bilan aniqlandi. O'tgan asrning 50-yillarida qo'sh fokuslash usuli bilan ta'minlangan (analizatorda qo'shimcha statik elektr va magnit maydonlari bor) mass-spektr oluvchi yangi moslamalar yaratildi. Barcha moddalar qatori, organik moddalarni mass-spektrometriya usulida o'r ganishning asosi 1960-yillarda to'la shakllandi. Shunga e'tibor qilishimiz lozimki, mass-spektrometriya spektroskopik tadqiqot usuli emas. Optik spektroskopiyada modda nurlanishi to'xtatilgandan keyin shu molekula boshlang'ich holatiga o'zgarmasdan qaytadi. Ammo mass-spektrometriyada molekula qo'zg'aladi va molekulyar ionlarga parchalanadi, o'z-o'zidan tushunarlik, bu parchalangan ionlardan boshlang'ich molekulaning qayta hosil bo'lishi mumkin emas.

Mass-spektrometriya ion massalarining spektrini olish usulidir. Mass-spektrometr sxemasi oddiy bo'lib, asosan 3 qismdan iborat: ion manbai, analizator, detektor.

Turli usullarning qo'llanilishiga ko'ra qo'yilgan vazifasiga qarab manbadan ham musbat, ham manfiy yoki har ikki zaryadli ionlar oqimi yaratiladi. Mass-

spektrometriya usulining boshqa usullardan farqi shundaki, bu usul bilan ishlash uchun namuna pikogrammlar ( $10^{-12}$  g) miqdorida bo'lsa ham yetarli bo'ladi. Ayniqsa, biologik faol moddalar, dorivor va gormonal preparatlarni aniqlash uchun ko'p modda sarflab bo'lmaydi, chunki ularni ajratib olishning o'zi juda mushkul vazifadir.

Mass-spektrometrik usullar bilan moddalarni o'rganish ayniqsa quyidagi sohalarda juda qo'l keldi: tabiiy gazlar, havo, sanoat chiqindilari, yonish natijasida hosil bo'lgan gazlar, aerozollar.

Shu narsa muhimki, mass-spektrometriya yordamida birinchi marta DDT (dust, insektsid, ilgarilari me'yoridan ortiq qo'llangan, hozirgi kunda ta`qiqlangan, sistematik nomi: 1,1,1-trixlor-2,2-di(*para*-xlorfenil)-etan, an'anaviy nomi dixlordifeniltrixloretan) o'ttizga yaqin metabolitlar hosil qilishi aniqlangan. Mass-spektrometriyada molekulada bo'ladigan ionlanish va dissotsilanish hodisalari elektronlar, fotonlar oqimi va kuchli elektr maydoni ta'sirida ro'y beradi.

Hozirgi zamon mass-spektrometrlerida yadro massalarini o'n milliondan bir atom birlik tartibidagi xatolik bilan o'lchash mumkin. Demak, mass-spektrometriya gaz holidagi moddani kuchli vakuum ( $P=10^{-7}$ - $10^{-9}$  mm.sim.ust.) da elektronlar oqimi bilan bombardimon qilib parchalash va hosil bo'lgan ion "bo'lak"larini analiz qilishga asoslangan usul ekanligi bizga ravshan bo'ldi.

**Bo'lakli ionlar.** Mass-spektral analizda  $M^+$  ion turlicha parchalanishi mumkin. Masalan,  $CCl_4$  molekulasi  $CCl_3^+$ ,  $CCl_2^+$ ,  $CCl^+$ ,  $Cl^+$ ,  $C^+$  kabi ionlar hosil qiladi. Juda ko'p moddalar parchalanishining eksperimental qiymatlarini fragmentlanish qonuniyatları bilan izohlash mumkin. Ammo molekulyar ionlarning parchalanishini tushintiruvchi umumiy nazariya hali ishlab chiqilmagan. Har qanday molekula parchalanishining yarim emperik sifat tushunchalarini bilish uchun har qaysi fragmentning turli xil ion holati, ularning elektron tuzilishi haqida tasavvurlari bo'lishi lozim. Masalan, benzoy kislota efrining ionlarga parchalanishi jarayonida oddiy  $C_6H_5CO^+$  ionining hosil bo'lishi  $C-O^-$  bog'inining uzilishi bilan borishini e'tiborga olish lozim.

Molekulyar ionlar dissosilanganda doimo bo'lakli ionlar hosil bo'ladi. Neytral molekuladan parchalanganda hosil bo'lgan molekulyar ion kation-radikal bo'lib, undan keyin hosil bo'lgan bo'lak ionlar yoki kation, yoki kation-radikal bo'lishi, molekulyar iordanajralib chiqayotgan zarracha  $m^0$  radikal yoki neytral molekula bo'lishi mumkin.




Agar hosil bo'lgan  $A^+$  ionning ichki energiyasi yetarli bo'lsa, u o'z navbatida parchalanadi va turli xildagi ion bo'laklarini hosil qiladi. Mass-spektrometriyada bunday ketma-ketlikdagi parchalanishni o'rga-nish fragmentlarning hosil bo'lish yo'llari deyiladi. Molekulyar ionlar va istalgan



bo'lakli ionlar ( $A^+$ ,  $B^+$ ,  $C^+$ ...) bir necha yo'nalishlar bo'yicha parchalanishlari mumkin. Bir yo'nalish bo'yicha bo'lakchalarning hosil bo'lish chegarasi molekulyar kationning dastlabki ichki energiyasi bilan belgilanib, ionning hosil bo'lishi va spektrlarda yozib olinish vaqtiga bog'liq.

Mass-spektrometriyada neytral molekula o'rganilmaydi, shuning uchun ham mass-spektrlarni tahlil qilishda eng avval qaysi bog' uzilishini va qaysi bo'lak musbat zaryadni o'zida saqlab qolishini bilishimiz kerak. Ionlanish jarayonida barcha bog'lar ham zaiflashadi, bunda bir bog' boshqasiga nisbatan ozmi-ko'pmi turli darajada kuchsizlanishi mumkin. Ionlarning parchalanishi bosqichma-bosqich ro'y beradi. Ular asosan boshlang'ich bo'lakli ionlarning dissotsilanishi natijasida hosil bo'ladi.

Odatda elektronlar oqimining energiyasi 50-70 eV atrofida bo'ladi. Bombardimon qilayotgan elektronlar ta'sirida moddadan bir dona elektron ajraladi, natijada molekulyar-ion deyiluvchi kation ( $M^+$ ) hosil bo'ladi.



So'ngra molekulyar ionning ( $M^+$ ) bir qismi, ba'zan hammasi parchalanadi. Ionlar asosan musbat va bir zaryadlidir. Mass-spektrometriya usuli bilan o'rganiladigan modda namunasi  $10^{-3}$  mg miqdorda bo'lsa ham tajriba uchun yetarli bo'ladi. Modda bombardimon qilinishidan avval bug' holatiga o'tkaziladi. Qizdirish natijasida modda molekulasi barqaror bo'lishi va parchalanmasligi lozim:




Aks holda ular o'miga yuqori termik ta'sirga chidaydigan hosilalari olinadi. Hosil bo'lgan ionlar massasiga ko'ra tashqi magnit maydoni ta'sirida ajraladi. Har qanday zaryadlangan zarra magnit maydonida o'zining harakat yo'nalishi (trayektoriyasi)ga ega. Oqimdag'i barcha molekulyar ionlarga o'rtacha bir xil energiya ta'sir etgani uchun ionlarning magnit maydonidagi og'ishi paytida uning massasi muhim rol o'ynaydi.

Mass-spektrlardagi har bir signal (cho'qqi) muayyan ( $m/e$ ) massadagi ionga mos keladi. Ionlar aralashmasida qaysi ion miqdori ko'p bo'lsa, unga muvofiq keladigan signal shuncha intensiv bo'ladi. Nisbiy intensivlikni ordinata ( $y$ ) o'qiga,

massa sonlarini abssissa ( $x$ ) o'qiga qo'yilib, mass-spektrning grafik tasviri olinadi. Bunda eng baland cho'qqi 100 % deb olinadi. Bu fikrimizni oydinlashtirish uchun moy aldegidining mass-spektrini tahlil qilaylik.



Spektri tahlil qilib, baland signal m/e = 44 (100 %) ekanligini osonlik bilan aniqlashimiz mumkin, ikkinchi m/e=29 (M-43) signalining intensivligi 55 % ekanligini aniqlaganimizdan keyin uchinchi intensiv signallardan biri m/e= 72 ( $M^+$ ) ga mos kelib, uning intensivligi 75% ga tengligi rasmdan ko'rinish turibdi. Demak, analiz uchun olingan moy aldegidining 75 foizi o'zgarmasdan, qolgan qismi C–C va C–H bog'lari bo'yicha parchalanadi.



Rasm. Moy aldegidining mass-spektri.

Ba'zan mass-spektrlarda  $M+1$  va  $M+2$  kabi ionlar uchun ham signallar qayd etiladi. Benzolning mass-spektrida m/e = 78 ( $M^+$ ) signallari bilan birga m/e = 79 ( $M+1$ )<sup>+</sup> va hattoki m/e = 80 ( $M+2$ )<sup>+</sup> signallari ham kuzatilgan. Bular benzol tarkibida  $^{13}\text{C}$  yoki D izotoplari borligi bilan izohlanadi. Og'ir izotoplarning miqdoriga mos ravishda bu signallarning intensivligi katta yoki kichik bo'ladi. Molekuladagi og'ir izotoplarning miqdori uning tabiatda tarqalganligi bilan mos tushadi.

1-jadval yordamida signal cho'qqilari intensivliklarining foiz miqdorini aniqlab, izotoplar signallarini ajratish mumkin. Benzolning mass-spektrlaridagi m/e = 78 ( $M^+$ ) signallari 100 %, m/e =79 ( $M+1$ )<sup>+</sup> ga tegishli signallar 6,58% va m/e = 80 ( $M+2$ )<sup>+</sup> signallari 0,18 % gacha qayd qilingan. Bu signallarning m/e=78 ( $M^+$ ) qismi  $\text{C}_6\text{H}_6$ -benzolga


1-jadval  
Og'ir izotoplarning tabiatda tarqalishi

Og'ir izotop	D	$^{13}\text{C}$	$^{15}\text{N}$	$^{18}\text{O}$	$^{33}\text{S}$	$^{34}\text{S}$	$^{37}\text{Cl}$	$^{79}\text{Br}$	$^{81}\text{Br}$
Izotop miqdori, %	0.015	1.11	0.37	0.20	0.78	4.4	32.5	50.5	49.5

taalluqli bo'lsa, m/e =79 ( $M+1$ )<sup>+</sup> signali  $^{13}\text{CC}_5\text{H}_6^+$  yoki  $\text{C}_6\text{H}_5\text{D}^+$  birikmasidan kuzatiladi. m/e = 80 ( $M+2$ )<sup>+</sup> signallari esa  $^{13}\text{C}_2\text{C}_4\text{H}_6^+$  yoki  $\text{C}_6\text{H}_4\text{D}_2^+$  kabi

molekulyar ionlar borligini bildiradi. Demak, o'rganiladigan modda tarkibidagi elementlardan birining tabiatda barqaror uchraydigan izotopi bo'lsa, shu izotoplarga mos keluvchi fragmentdan hamisha birdan ortiq signallar qayd etiladi.  $\text{CH}_3\text{-Br}$  spektrida intensivligi bir xil bo'lgan ikkita  $m/e = 94$  va  $m/e = 96$  kabi signallar qayd etiladi, bu xil signallar  $(\text{CH}_3{}^{79}\text{Br})^+$  va  $(\text{CH}_3{}^{81}\text{Br})^+$  molekulyar ionlarga tegishli ekanligini 4.1-jadval yordamida osonlik bilan aniqlay olamiz.


Mass-spektrlar olishda izotoplarni almashtirish (nishonlash) usuli ham qo'llanadi. Ko'p hollarda molekulaning qaysi qismidan ayni signal intensivligiga muvofiq keluvchi bo'lagini bilish uchun ayrim izotoplar [ $^2\text{H}$ ,  $^{13}\text{C}$ ,  $^{33}\text{S}$ ,  $^{34}\text{S}$ ] molekula tarkibiga aynan kiritiladi. Bu ishlar natijasida spektrdagи  $m_1$  ionga muvofiq keluvchi signal bir birlik miqdorida o'ngga siljigan bo'lsa [ya'ni ( $m_1 - \text{H}$ ) + D], qilingan taxmin to'gri chiqqan hisoblanadi. Nishonlash yo'li bilan benzoy kislota va metil spirti o'zaro reaksiyaga kirishganda efir hosil qiluvchi kislorod atomi metanol molekulasiga tegishli ekanligi va suv hosil qilishda benzoy kislotaning karboksil guruhidan OH ajralishi aniqlandi:



Fikrimizni yanada oydinlashtirish uchun quyidagi o'rin olish reaksiyalarini ikkinchi misol shaklida ko'rib chiqaylik:



R-alkil yoki vinil radikali, X-xlor yoki brom, bu reaksiyalar natijasida tegishli mahsulotlarga to'gri keluvchi fragmentlar olindi, ammo reaksiya mahsulotlari ajratilganda faqat dastlabki reagentlargina hosil bo'lgani aniqlandi. O'rin olish jarayonida quyidagicha to'rt markazli murakkab oraliq mahsulot hosil bo'ladi:



$3 \text{ RBX}_2 + 2\text{BF}_3 \rightarrow 3 \text{ RBF}_2 + 2 \text{ BX}_3$  (va  $\text{BF}_n\text{X}_m$ ) reaksiya jarayonida alkil guruhlari almashinadimi yoki yo'qmi degan savolga javob topish uchun bor(III)-ftoridi tarkibidagi bor o'zining  $^{10}\text{B}$  izotopi bilan boyitilganda shu narsa aniqlandiki, reaksiya jarayonida  $\text{RBX}_2$  barqaror bo'lgan sharoitda hech qanday alkil va vinil radikallari o'rin olish reaksiyasiga kirishmas ekan.

Ba’zida izotoplarni almashtirish o’rniga molekuladagi ayrim atomlar funksional guruuhlar ( $\text{CH}_3$ ,  $\text{C}_2\text{H}_5$ ,  $\text{CH}_3\text{COO}$ ,  $\text{HO}$ ,  $\text{H}_2\text{N}$  va hokazo) bilan almashtiriladi:




Bunda molekulaning shu qismi signallarining cho’qqisi 15, 29, 59 va hokazo birlikka o’ngga siljiydi. Mass-spektrometriyada bu usul yordamida signallarning tahliliga aniqlik kiritish ***deyteronishonlash*** deyiladi.

***Qayta guruhlantiruvchi ionlar.*** Oddiy dissotsiativ ionlanish hodisasi molekulaning katta guruhanishi bilan belgilanadi. Masalan, talliy oksidining ( $\text{Tl-O-Tl}$ ) mass-spektrida  $\text{Tl}_2^+$  ioni mavjud bo’ladi va  $\text{TiO}^+$  ioni hosil bo’lmaydi.


Molekulaning ionlanishi oqibatida, doimo bir xil bog’larning uzelishi va yangi bog’ hosil bo’lishi kuzatiladi. Bunga misol qilib tropiliy ioni hosil bo’lishini ko’rsatish mumkin. Bu ionning hosil bo’lishi toluolning ko’p hosilalarida ham uchraydi. Tropiliy ionining halqali tuzilishi va barcha uglerod atomlarining teng qiymatli ekanligi fizikaviy usul – izotoplar almashinuvi bilan isbotlandi:




Vodorod atomi ishtirok etmagan qayta guruhanish skeletli qayta guruhanish deyiladi. Vodorod atomi ishtirokida boradigan qayta guruhanishga neopentan ionining fragmentlanishini ko’rsatish mumkin:



Ko’pgina birikmalar mass-spektrometriya jarayonida zaryadli yoki zaryadlanmagan zarrachalar hosil qiladi. Bularning barchasini oddiy bog’larning uzelishi bilan tushuntirib bo’lmaydi. Bunday ionlarning dissotsilanishida atomlarning qayta guruhanishi sodir bo’ladi. Qayta guruhanish natijasida hosil bo’lgan ma’lum xususiyatli ionlar ayrim kimyoviy guruhlargagina xosdir. Spirtlar uchun doimo  $m/e = 19$  intensiv signallar xarakterlidir. Ba’zan ko’pgina molekulalarning spektrida atomlarning qayta guruhanishidan hosil bo’lgan ionlarning signallari olinadi.




Moddalar uchun aksariyat hollarda vodorod atomining ko'chishi kuzatiladi. Ba'zida vodorodning ko'chishi natijasida ko'chgan vodorodning geteroatom bilan birikib neytral molekula sifatida ajralib chiqishi kuzatiladi:




Alken, alkinlarda qayta guruhlanish ko'p uchraydigan holdir, ammo shuni e'tirof etishimiz lozimki, barcha qayta guruhlanish jarayonlari osonlik bilan kechmaydi. Ko'pgina hollarda shu narsa qayd qilinganki, spektr olish jarayonida musbat zaryadli ionning barqarorligi juda muhim ahamiyat kasb etadi, u esa o'z navbatida hosil bo'lган oxirgi fragmentdagi musbat zaryadning qayta taqsimlanishi (delokallanishi) bilan belgilanadi.  $\text{HOCH}_2-\text{CH}_2\text{NH}_2^+$  ioni bo'laklarga ajrilishini ko'rganimizda  $\text{CH}_2\text{OH}$  radikali va  $\text{CH}_2\text{NH}_2^+$  ioni ( $m/e = 30$ ) yoki  $\text{CH}_2\text{NH}_2$  radikali va  $\text{CH}_2\text{OH}^+$  ioni ( $m/e = 31$ ) kabi zarrachalar hosil bo'lishining guvohi bo'lamic. Azot atomi kislorod atomiga nisbatan kichik elektromanfiyli bilan farqlangani uchun  $\text{CH}_2=\text{OH}^+$  rezonans shaklga nisbatan  $\text{CH}_2=\text{NH}_2^+$  rezonans shaklidagi ionning barqarorligi katta ekanligini e'tirof etishimiz lozim. Shuning uchun ham  $\text{CH}_2\text{NH}_2^+$  zarrachaning musbat zaryadi  $\text{CH}_2\text{OH}^+$  zarrachaga nisbatan samaraliroq delokallahsgan va  $m/e=30$  massaga mos keluvchi ion signali  $m/e=31$  massali zarracha signaliga nisbatan 10 marta intensivroq namoyon bo'ladi. Mass-spektrometriya usuli bilan shu narsa aniqlanganki, oltingugurt atomi tutgan birikmalarda oltingugurt atomi molekulyar ionlarining musbat zaryadini kislorodga nisbatan ancha zaifroq barqarorlashtiradi, chunki  $\text{C}=\text{S}$   $\pi$ -bog'inining effektivligi  $\text{C}=\text{O}$   $\pi$ -bog'iga nisbatan juda pastdir. Shuning uchun ham  $\text{HSCH}_2-\text{CH}_2\text{OH}$  birikmasining mass-spektrida  $\text{CH}_2\text{OH}^+$  ioniga tegishli  $m/e=31$  massali cho'qqi intensivligi  $\text{CH}_2\text{SH}^+$  ionining  $m/e=47$  massadagi cho'qqisiga nisbatan ikki marta yuqori.

**Skeletli qayta guruhlanish.** Ko'rib chiqqanimizdek, qayta guruhlanish molekula tuzilishiga uzviy bog'liqdir. Skeletli qayta guruhlanishda eng ko'p alkil-va aril guruhlari qatnashadi va bunda neytral zarrachalar ajralib chiqadi ( $\text{CO}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{SO}_2$ ,  $\text{SO}_3$ ,  $\text{CH}_2\text{O}$ ,  $\text{HCN}$ ,  $\text{S}$  va hokazo).



Ajralib chiqqan neytral zarracha boshlang'ich modda tuzilishi to'grisida aniq ma'lumot beradi; karbonat angidridining ajralib chiqishi moddaning tarkibida karboksil guruhi yoki murakkab efir fragmenti tutgan organik birikma borligidan darak beradi.




Qayta guruhanishning umumiy ko'rinishi:




A va C – to'yinmagan guruhlar

Mass-spektrometrik jarayonda barqaror modda hosil bo'lsa, qayta guruhanuvchi ionlarining signallari intensivligi ortadi. Birinchi ionining tuzilishga e'tibor bersak, u oson olti a'zoli geterohalqali birikmaga o'tadi. Bu birikmaning hosil bo'lishidan kuzatilgan signal intensivligi besh a'zoli geterohalqa signaliga nisbatan ancha baland bo'ladi, chunki musbat zaryad ikkinchi ionda ko'proq delokallahsgan.



**Metastabil ionlar.** Ionlanish jarayonida beqaror ionlar ham hosil bo'ladi. Parchalangan ion hosil bo'lishining vaqtı  $\sim 10^{-5}$  sek bo'lsa, buni mass-spektrometr qayd qiladi, ammo olingan signallar diffuz xarakterga ega bo'ladi.


Mass-spektrlarda ba'zida massasi kasr sonlar bilan ifodalanadigan ionlar ham qayd qilinadi. Bu signallar eniga cho'zilgan va intensivligi juda past bo'ladi. Bunday signal beruvchi ionlarga **metastabil ionlar** deyiladi. Metastabil cho'qqilar hosil bo'lish sababini quyidagicha izohlaymiz. Bombardimon qilish kamerasida ko'pincha beqaror ionlar hosil bo'ladi, bu ionlar mass-spektrometrning tezlashtiruvchi elektr maydonida harakat qilayotganida ionlanish kamerasidan otilib chiqib bir xillari kollektorga yetib keladi, ayrimlari yetib kelmasdan dissotsilanadi. Parchalangan iordan nisbatan kichik m/e ga ega ion va neytral molekula hosil bo'ladi, bu jarayon magnit maydoniga yetib kelguncha amalga oshgani sababli spektrda har ikki (parchalangan va hosil bo'lgan) ion cho'qqilar o'rtasida (o'zi aslida bo'limgan) massasi kasr songa teng bo'lgan beqaror ion signali namoyon bo'ladi. Bu cho'qqilarga ba'zan "yolg'on" signal ham deyiladi. Bu xildagi metastabil ionlar hosil bo'lishi ko'pincha kompleks birikmalarning mass-spektrlarida kuzatiladi. Metanol yoki uning deyteriyli hosilasi quyidagicha metastabil ion hosil qilishi mumkin:




Aminlarga xos metastabil ion hosil bo'lishi:




**Manfiy zaryadli ionlar.** Ular quyidagi hollarda kuzatiladi. Elektronning rezonanslashuvi




Dissotsiativ elektron rezonansi:



Ion-molekulyar reaksiyalar:




Molekulaning juft ionlarga parchalanishi:




Elektron oqimi ta'sirida manfiy zaryad hosil bo'lish ehtimolligi juda past ( $\sim 10^{-7}$  sek) bo'lib, musbat zaryadli ion hosil bo'lishi ( $\sim 10^{-4}$  sek) ga teng keladi. Shuning uchun mass-spektrda manfiy zaryadli ionning hosil bo'lish ehtimolligi juda past bo'lisa ham, molekula tuzilishi haqida aniq ma'lumot beradi.

**Ko'p zaryadli ionlar.** Mass-spektrometriya eksperimentlarida ko'p zaryadli ion hosil bo'lishi juda kam kuzatiladi. Ammo, ba'zi hollarda, aromatik birikmalarda bu hodisa uchrab turadi. Bu xil ionlarning hosil bo'lishi zaryadning maksimal taqsimoti bilan belgilanadi:



Namuna mass-spektrining yechimini topishning keyingi bosqichi molekulaning fragmentlanish (parchalanish) qonuniyatları asosini hisobga olish amalga oshiriladi. Spektrda ko'p bo'lakli ionlardan m/e kamayishi bilan olingan cho'qqilar intensivligining ortib borishi odatda namunada alifatik uglevodorod yoki uning hosilasi borligini anglatadi. Aromatik birikmalarning molekulyar-ion cho'qqilarini odatda yuqori intensivlikka ega. Spektrdagи asosiy bo'lakli ionlardan intensiv cho'qqilarning olinishi dissotsiativ parchalanishning ehtimollik yo'naliishini ko'rsatib beradi. Bunga misol tariqasida fragmentlanish qonuniyatiga ko'ra quyidagicha bog'lar uzilishi mumkinligini ko'rsatishimiz mumkin:


1. Izotuzilishli uglevodorod hosilalarining tarkibidagi bog'ning uzilish ehtimolligi zanjir tarmoqlangan joydan boshlanadi:




2. Uglevodorod zanjirining uzayib borishi C-H bog'ining uzilish ehtimolligini kamaytiradi.

3. Aromatik uglevodorod hosilalaridagi  $\beta$ -bog'ning uzilishi va qayta

guruhanish oqibatida tropiliy ( $C_7H_7^+$ ) kationining hosil bo'lish ehtimolligi juda yuqori bo'ladi:




4. Spirlarning mass-spektrlari uchun xarakterli bo’lgan yo’nalish massasi 31 va  $M - 1$  bo’lgan ionlar paydo bo’lishi bilan amalga oshadi:




Hosil bo'lgan ionlarning barqarorligini oshiruvchi omil sifatida qo'shbog'ning paydo bo'lishi va to'yinmagan  $\text{CH}_2=\text{OH}$  (31) yoki  $\text{RCH}=\text{OH}$  ( $M-1$ ) ionlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bu xildagi parchalanish sxemasi ko'proq tarmoqlangan zanjir tutgan spirtlar uchun xosdir.

5. R – CH<sub>2</sub> – NH<sub>2</sub> kabi aminlar uchun asosan α-bog'ining uzilishi kuzatiladi:



Bunda jarayon  $\text{CH}_2=\text{NH}_2^+$  (30) kabi ionning hosil bo'lishi bilan kechadi. Ba'zi hollarda  $\text{RCH}=\text{NH}_2^+ (M-1)$  ioni ham ajraladi.

6. Ketonlar  $R_1-C(O)-R_2$  mass-spektrida  $R_1-C\equiv O^+$  va  $R_2-C\equiv O^+$  kabi ionlarning hosil bo'lishi ham qayd qilingan. Agar alkil radikalining kattaligi uch va undan ortiq uglerod atomidan iborat bo'lsa,  $\beta$ -holatdagi C-C-bog' uzilishi kuzatiladi va vodorod atomi ishtirokida qayta guruhlanish sodir bo'ladi:



Bu holda molekulyar-iondan tashqari neytral olefin molekulasi ham ajralib chiqadi.

7. Metallorganik birikmalarda metall-uglerod bog'i kichik energiyali bo'lgani uchun mass-spektrda molekulyar ionning intensivligi keskin kamayadi.

8. Alifatik ftoridlar, xloridlar, bromidlar kichik molekulyar ion tokiga ega, ammo iodidlardan ancha intensiv molekulyar-ion cho'qqilari kuzatiladi.

Ko'p hollarda faqat mass-spektrlar natijalariga ko'ra birikmalar tuzilishini aniqlash qiyin bo'lgani uchun qo'shimcha fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalanish yuqori samara beradi.

## **ULTRABINAFSHA (UB) SPEKTROSKOPIYA**

Elektron UB spektroskopik usullar guruhi faqat ultrabinafsha emas, balki ko'rish sohasi va yaqin IQ sohasidagi atom va molekulalarning turli elektron holatlar orasidagi o'tishlarni ham o'rganadi. Molekulyar elektron spektrlar haqida gapiradigan bo'lsak, yuqoriharoratda olingan bunday emission spektrlar juda barqaror molekulalar uchun kuzatiladi. Ko'p atomli molekulalarning elektron spektrlari odatda yutilish spektri sifatida elektromagnit to'lqinlar kvantini yutib asosiy holatdan qo'zg'algan holatga o'tish tarzida, ikkinchisi molekulaning elektromagnit nurlarini sochib, qo'zg'algan holatdan asosiy holatga o'tishi natijasida qayd qilinadi.

Bundan tashqari elektron spektroskopiyaning yangi sohasi bo'lgan nurning kombinatsion sochilish usuli ham bor, ammo u endi tashkil topib, rivojlanib bormoqda. Sifat va miqdoriy tahlil uchun odatda absorption UB usulidan keng foydalananadilar, bu usulni to'ldirish uchun IQ, kombinatsion sochilish (KS) yoki YaMR spektroskopiysi ham ishlatiladi. Bundan tashqari kimyoviy birikmalarning tuzilishini aniqlashda mass-spektrometriya usuli qo'l kelmoqda. Ammo hozirgi zamonda UB spektroskopiyasining tayangan usuli hisoblanadi. Ayni shu usul bilan molekulaning elektron holati, xususan energetik o'zgarishlar, geometrik konfiguratsiyasi, elektron bulut zinchligining taqsimoti va boshqa molekulyar kattaliklar haqidagi ma'lumotlar uning asosiy energetik holatdan qo'zg'algan holatga o'tishi bilan aniqlanadi.

### **Elektron o'tishlar tasnifi, ularning nisbiy holati**

Molekulalar elektromagnit to'lqinlarni UB- va ko'zga ko'rinvchi sohada yutganda aylanma va tebranma holatga o'tkazish uchun kerakli energiya elektronlarni past pog'onadan yuqoriroqko'zg'algan energetik pog'onachagao'tkazish jarayonida sarflanadigan energiyadan kichik bo'lishi ma'lum. Shuning uchun molekulaga UB-nurlar ta'sir etilganda uning har uchala: aylanma, tebranma va elektron energiyalari o'zgaradi. Elektronlarning yutilish spektri yoki boshqacha qilib aytganda, UB-spektroskopiya elektrnomagnit to'lqinlar energiyasi ta'sirida elektron-larning bog'lovchi orbitallardan ajratuvchi orbitallarga o'tishi kuzatiladi. Molekulaning bu holati, ilgari qayd qilganimizdek, qo'zg'algan holat deyiladi. Elektronlar yorug'lik kvanti ( $h\nu$ ) bilan o'zaro ta'sirlashganda energiya yutib yuqori egallab turgan orbitallaridan quyi vakant orbitallarga ham o'tishi mumkin. Elektronlar yadro bilan kuchli tortishib turganligi sababli ularni qo'zg'otish uchun katta energiyaga ega bo'lган nur bilan ( $\lambda=120-800$  nm) ta'sir etishimiz lozim. Bunda aylanma va tebranma spektrlar ham kuzatiladi, bu ajralish UB-spektrlarining nozik strukturasi deyiladi. Nozik strukturalar UB spektrlar talqinini qiyinlashtiradi, shuning uchun modda spektrlari eritmada olinadi

Uzoq UB, ya'ni vakuum sohasida ( $\lambda=120-190$  nm) havo tarkibidagi kislrorod va azot molekulalari ham yutilish spektrlariga ega, shuning uchun bu sohada spektr olish uchun olimlarimiz vakuummoslamalari bo'lган ancha murakkab uskunali

spektroskoplarni tavsiya qiladilar. Shularni hisobga olib, yaqin UB va ko'rish sohasida ( $\lambda \geq 210$  nm havo va kvars tiniq bo'lgani uchun) to'lqin uzunligi 190-800 nm oralig'ida UB-spektrlari olinadi. UB-spektrlarini olishning yana bir qulayligi shundaki, tadqiqot uchun bor-yo'g'i 0,1 mg modda kerak bo'ladi.

Bizga ma'lumki, atom va molekulalarda elektronlar faqat muayyan energetik qiymatlardagi orbitallardagina joylashgan. Bu energiya darajasi ma'lum tartibdagi kvant sonlari yig'indisi bilan ifodalanadi. Modda molekulalaridagi molekulyar orbitallar atom orbitallarining chiziqli kombinatsiyasi deb qabul qilingan. Bundan kelib chiqadigan xulosaga binoan elektronlar ikki xil holatlarda: asosiy va qo'zg'algan (odatda qo'zg'algan holat yulduzcha (\*) bilan ifodalanadi) bo'lishi mumkin:

- bog'lovchi orbitallarda  $\uparrow\downarrow$  (asosiy holat),
- ajratuvchi orbitallarda  $\uparrow\uparrow$  (qo'zg'algan holat).

Molekulalarda bog' hosil qilishda qatnashgan elektronlar asosan ikki xil:  $\sigma$ -va  $\pi$ -bog'larni hosil qiladi. Agar ularning tarkibida geteroatomlar bo'lsa, geteroatomlarning bir yoki bir necha erkin elektron juftlari ( $n$ -elektronlar) ham uchraydi.

Elektronlarning  $\sigma \rightarrow \sigma^*$  o'tishlari uchun, ya'ni eng mustahkam  $\sigma$ -bog' elektronlarini qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun juda katta energiyali kvantlar (qisqa to'lqin uzunlikdagi nur) lozim bo'ladi,  $n \rightarrow \sigma^*$  va  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishlari uchun kuchsizroq energiyaga ega bo'lgan (yoki kattaroq to'lqin uzunlikdagi) nurlar ham kifoyadir. Erkin  $n$ -elektronlarning energetik darajasi  $\pi$ -energetik darajadan yuqori, shuning uchun  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron ko'chishdan ko'ra  $n \rightarrow \sigma^*$  elektron o'tishlari oson amalga oshadi. UB-spektrlarini yozib oluvchi spektroskoplarning ishchi diapazoniga asosan  $n \rightarrow \sigma^*$  va  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishlariga mos tushadigan to'lqin uzunlikdagi nurlarning yutilishi tanlab olingan.

Yutilish spektrlarini tushuntirishda, UB va ko'rish sohasining eksperimental tadqiqotlarini amalga oshiruvchi uskunalarning natijalarini umumlashtirib, *xromofor* va *auksoxromlikkonsepsiysi* yaratilgan. Xromofor guruhlarga har xil alohida izolirlangan yoki tutash tizim hosil qiluvchi qo'shbog'lar, taqsimlanmagan erkin elektron jufti tutgan atom va radikallar, aromatik halqali birikmalar va hokazolar kiradi. Ba'zida ular K-xromoforlar deyiladi. Barcha molekulyar spektrlar: aylanma, tebranma, elektron o'tishlar kvant mexanikasi nuqtai nazaridan tegishli energetik holatlar orasidagi molekula o'tishlari bilan izohlanadi. Bu o'tishlar umumiyligi bo'lsa ham, har qanday molekulyar spektroskopiya usuli uchun spektrlarning tushuntirilishi va bu o'tishlarning sinflanishi va o'z terminologiyasi bor.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda dastlabki elektron nemischa *konjugiert* – tutashgan), R – xromoforlar (nemischa *radikal* – radikal) va aromatik xromoforlar (benzol halqasiga xos yutilish spektrlari beruvchi)ga ajratiladi. K-yutilishlar eng intensiv va to'lqin uzunligi katta bo'lib ( $\xi \geq 10\,000$ ), R-yutilishlar qisqa to'lqinli va kuchsiz ( $\xi \leq 100$ ). Ularning orasida intensivligi o'rtacha ( $\xi = 250-300$ ) bo'lgan B-yutilishlar ham kuzatiladi. Ma'lumki, xromofor guruhlarning xarakterli yutilish

spektrlarini to'lqin uzunligi katta tomonga siljituvchi atomlar guruhiba auksoxromlar deyiladi, ular ham formaldegid molekulasi kabi  $\sigma$ -,  $\pi$ -,  $n$ -,  $\pi^*$ - va  $\sigma^*$ - orbitallarga ega bo'lib, har qaysi molekulalar o'ziga xos yutilish chizig'iga ega bo'ladi. Shved olimi Yu.R. Ridberg spektr seriyalarida uchraydigan doimiylilik (R)-ni fanga kiritdi, bu kattalik atomlarning spektri seriyalaridagi energiya darajalaridan birini ko'rsatadi. Bu ( $N \rightarrow R$ ) elektron o'tishlaridan farqli ravishda, amerikalik olim R.S. Malliken valent qobiqlari ichidagi elektron o'tishlari ( $N \rightarrow V$  va  $N \rightarrow Q$ ) darajasi haqidagi tushunchalarni fanga kiritdi, bu yerda barcha hollar uchun N – normal, ya'ni asosiy elektron holatini anglatadi. Bog'lovchi va bo'shashtiruvchi darajalar orasidagi elektron o'tishlar ( $\pi \rightarrow \pi^*$ ,  $\sigma \rightarrow \pi^*$ ,  $\sigma \rightarrow \sigma^*$ )  $N \rightarrow V$  sinfiga mansub. Bu o'tishlarda o'rtacha va yuqori intensivlikdagi spektr chiziqlari qisqa to'lqin sohasida qayd qilinadi.  $N \rightarrow R$  o'tishlar undan ham kichik to'lqinli sohada (odatda UB spektrlarining vakuum sohasi) va intensivligi kattaroq spektr sifatida kuzatiladi.  $N \rightarrow Q$  o'tishlar sinfiga elektronlarning bog'lamaydigan (erkin elektron juftlari) orbitallidan ajratuvchi orbitalga ( $n \rightarrow \pi^*$ ,  $n \rightarrow \sigma^*$  tipdagi) o'tishini ifodalaydi. Odatda  $N \rightarrow Q$  o'tishlar yo'nalishi qutblangan bo'lib,  $N \rightarrow V$ -parallel yo'nalgan qutblanishdan farqli ravishda xromoforlar bog' (uning simmetriya o'qi) yo'nalishiga perpendikulyar holda yo'nalgan bo'ladi.

UB-spektroskopiyada jami elektron o'tishlar uchga ajratiladi:  
 $N \rightarrow V; N \rightarrow Q; N \rightarrow R$ .


**I.**  $N \rightarrow V$  nur yutilishi paytidagi umuman elektron o'tishlari  $\sigma \rightarrow \sigma^*$  va  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'zgarishlardan iborat bo'lib, molekula asosiy holatdan qo'zg'algan holatga o'tadi va elektronlar ko'chishi oqibatida molekulaning dipol momenti oshadi. Qutblanishning ortishi bilan UB-spektrlaridagi yutilish maksimumlarining intensivligi ham ortadi.  $\sigma \rightarrow \sigma^*$ -elektron o'tishlari optik spektroskopiyaning uzoq UB sohasida namoyon bo'ladi. Bog'lovchi  $\pi$ -molekulyar orbitallardagi elektronlar yadroga  $\sigma$ -bog' elektronlariga nisbatan kuchsizroq tortiladi va  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlarni amalga oshirish uchun uncha kattaenergiya talab etilmaydi.  $\pi \rightarrow \pi^*$ -elektron o'tishlari asosan qo'shbog' tutgan birikmalarda uchraydi. Alovida izolirlangan C=C, C=N qo'shbog'lari va C≡C, C≡N uchbog'larining yutilish maksimumlari ( $\lambda_{maks}=160-180$  nm) bundan mustasnodir. Bu xildagi qo'shbog'lardan faqat karbonil C=O guruhi qo'shbog'i uchun yutilish maksimumi UB-spektrlari yozuvchi qurilmalarda kuzatiladi ( $\lambda_{maks}=270$  nm). UB- va ko'rish sohasiga mos keluvchi elektromagnit tebranishlarini yutadigan molekula tarkibidagi bu xil funksional guruhlarga xromoforlardeyiladi. 200-800 nm oralig'ida yutilish maksimumlarini namoyon qiluvchi asosiy xromofor guruhlari oralatma qo'shbog' tutgan birikmalardir. Tegishli izolirlangan qo'shbog'larning o'zaro ta'siri oqibatida yana ikkita yangi orbitallar hosil bo'ladi: ularning biri boglovchi ( $\pi+\pi$ ) va ikkinchisi ajratuvchi ( $\pi-\pi$ ) orbitallardir. Asosiy holatdagi bu ikkita orbitallardan

tashqari qo'zg'algan holatda ham ularga mos keluvchi xuddi shunday ikkita yangi orbital hosil bo'ladi.

Molekuladagi oralatma qo'shbog'lar soni ortib borishi bilan elektronlarni qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun sarflanadigan energiya miqdori kamayib boradi va nurning yutilishi to'lqin uzunligi katta tomonga siljiydi. Bir-biridan ajratilgan qo'shbog'lar sistemasiga nisbatan aromatik uglevodorodlarning elektronlari osonroq qo'zg'algan holatga o'tadi. Shunday qilib, UB-spektroskopiyasining asosiy xromoforlari oralatma C=C-bog'lar, C=O-karbonil guruhi, C=C-C=O-sistemalari va aromatik yadrolar hisoblanadi.

Spektrlardagi yutilish intensivligi ayni shu holga to'g'ri keladigan elektron o'tishi bilan belgilanadi. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, hamisha elektron o'tishlari yuz bermaydi. UB-spektrda yutilish asosan xromofor guruhlari va uning yaqin atrofidagi o'rnbosarlari bilan belgilanadi. Ayrim xromofor guruhlar yutilish maksimumlarining o'rni ba'zan uning yaqin atrofidagi o'rnbosarlari ta'siri ostida qisman o'zgarishi mumkin. Oralatma qo'shbog'li sistemada spektrlarga mos keluvchi energiya kamayadi va maksimumlarning o'rni katta to'lqin uzunligi (quyi chastotali soha) tomoniga siljiydi va bu *batoxrom* siljish deyiladi. Agar yutilish maksimumi to'lqin uzunligi qisqa tomonga (ya'ni yuqoriga) siljisa – *gipsoxromsiljish* deb nomlash qabul qilingan. Yutilish maksimumi intensivligining ortishi *giperxrom*, kamayishiga – *gipoxromeffekt* deyiladi (2-rasm).

2-rasm. Elektron spektridagi yutilish chiziqlari siljishining turli ko'rinishlari va intensivligining o'zgarishi.



Umuman, qo'shbog'lardagi  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishlari bilan boradi-gan istalgan xromoforga elektronodonor guruhlar oralatma holatda bog'langan bo'lsa, batoxrom siljish kuzatiladi. Bu guruhlar *auksroxromlar* deyiladi: H<sub>3</sub>N:, H<sub>2</sub>N:, R<sub>2</sub>N:, HO:, C=X:, RO:, HS:, RS:


N→V elektron o'tishlari maksimumlariga K-yutilish chizigi, benzol halqasi tutgan organik birikmalarning maksimumlari A- yoki E-yutilish chizig'i deyiladi. Odatda  $\pi \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishlari K-yutilish chizig'i, n→π\* elektron o'tishlar R-yutilish chizig'i deb yuritiladi. Karbonil guruh tutuvchi moddalar (aldegidlar, ketonlar, kislotalar, murakkab efirlar)da K-yutilishdan ( $\pi \rightarrow \pi^*$ ) tashqari R-chiziqlari (n→π\*) ham bo'ladi. Umuman molekulada elektron o'tishlar qancha ko'p bo'lsa, spektrda maksimumlar soni shuncha ko'p bo'ladi, lekin kuzatilishi

lozim bo'lgan barcha maksimumlar hamisha qayd qilinmaydi. Valent elektronlari yuqori energiyali molekulyar orbitallarga o'tganda ularning spinlari qiymati o'zgarishi va o'zgarmasligi ham mumkin:

1. Elektronlarning spin qiymati o'zgarmaydigan o'tishlariga – singlet yoki ta'qiqlanmagan o'tishlar deyiladi.

2. Elektronlarning spin o'zgarsa – triplet (ta'qiqlangan) o'tish yuz beradi. Triplet o'tishlarda molekula nur yutmaydi. Agar elektron o'tishlar paytida molekulaning dipol momenti o'zgarmasa (ya'ni orbital simmetriya o'zgarmasa) ham elektronlar energiya qabul qilmaydi.

To'yinmagan birikmalar molekulasi dagi qo'shbog'lar soni ko'p bo'lsa-yu, ular bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lsa, spektrdagagi yutilish maksimumlarining o'rni o'zgarmaydi, ammo intensivligi ortadi:



Agar qo'shbog'lar oralatma holatda joylashgan bo'lsa, birikmada bunday additivlik kuzatilmaydi:



Molekuladagi oralatma qo'shbog'larning soni ortib borsa, bu molekulalarning yutilish maksimumlari ko'zga ko'rindigan ( $\lambda_{\max}=400-800$  nm) nurlarni yutadi va bu moddalar ayrim ranglarga bo'yalgandir.

UB-spektrlaridagi yutilish intensivliklari elektronlar o'tishi ehtimolligi bilan belgilanadi. Odatda, tanlash qoidasi degan tushunchaga muvofiq spektrda yutilish kuzatiladi, ular ta'qiqlanmagan va ta'qiqlangan o'tishlar bo'lishi mumkin. Bu qoida asosan molekula simmetriyasini, hamda asosiy va qo'zg'algan hollardagi elektronlar simmetriyasini hisobga oladi.

Benzolning UB-spektrida (2.8-rasm) uchta yutilish maksimumlari qayd qilinadi:  $\lambda_{\max}=180$  nm,  $\xi=50000$ ;  $\lambda_{\max}=200$  nm,  $\xi=7000$  va  $\lambda_{\max}=250-260$  nm  $\xi=204$ . Benzol halqasidagi vodorod atomlari boshqa o'rindbosarlarga almashtirilganda, uning spektridagi yutilish maksimum-larining batoxrom siljishi kuzatiladi. Agar halqadagi o'rindbosarlar soni ikkita bo'lsa, yutilish maksimumlari ularning bir-biriga nisbatan halqada joylashishiga va ularning tabiatiga bog'liq bo'ladi (2.2-jadval).

2.  $N \rightarrow Q$  o'tishlarda  $n \rightarrow \sigma^*$  va  $n \rightarrow \pi^*$  elektron ko'chishlar kuzatiladi.

$n \rightarrow \sigma^*$ -elektron o'tishlari uzoq va yaqin UB sohaga,  $n \rightarrow \pi^*$ -elektron o'tishlari to'lqin uzunligi kattaroq bo'lgan yaqin UB va ko'rish sohasiga muvofiq keladi. Elektronlarning  $n \rightarrow \pi^*$ -o'tishiga mos keluvchi yutilish maksimumlarini C=O, C=S, N=N kabi xromofor guruhlari belgilaydi.

3.  $N \rightarrow R$  o'tishlariga atomar yoki Ridberg elektron o'tishlari deyiladi. Modda molekulasiga yuqori energiya berilib nurlantirilsa, undan elektronlar chiqib ketishi mumkin (bu hodisaga fotoionlanish deyiladi). Bu o'tishlar uzoq UB sohasida sodir bo'lib, spektrda intensiv o'tkir maksimumlar tarzida kuzatiladi.


Elektron o'tishlardagi eng kichik energiya  $n \rightarrow \pi^*$  o'nishga ( $N \rightarrow Q$ ) mos keladi. Bu o'tishga mos keluvchi yutilish kuchsiz bo'lib ( $(\xi \sim 20)$   $\lambda = 270 - 300$  nm sohasiga to'g'ri keladi, hamda alifatik aldegid va ketonlar ucun xos kattalikdir. Ularning bir-biridan tuzilishidagi farqiga qarab ( $\text{CH}_3-\text{COH}$ ,  $\text{CH}_3-\text{CO}-\text{CH}_3$ ,  $\text{CH}_3-\text{COCl}$ ) yoki elektromanfiyliги ortib borish tartibida yutilishning to'lqin uzunligi kamayib boradi (spektrdagi ko'k rang tomonga *gipsoxrom* siljish):  $\lambda_{\text{maks}} = 293,4$ ; 279,0; 235,0 nm va intensivligi ortadi – *giperxrom* effekt:  $\xi_{\text{maks}} = 11,8$ ; 14,8; 53,0. Tolqin uzunligi oshgan tomonga o'zgarish – *batoxrom* (qizil rang sohasi) effekt, bunda intensivlik kamayib, *gipoxrom* effekt qayd etiladi.

UB spektrlari olishda erituvchining ta'sirini atsetonning turli erituvchilardagi eritmasi misolda ko'rib chiqamiz: atsetonning geksandagi eritmasi –  $\lambda_{\text{maks}} = 279$ ; xloroformda – 277; etanolda – 272; metanolda – 270; suvda – 264,5 nm qiymatga tengdir, ya'ni erituvchi ning qutbliligi ortib borishi bilan gipsoxrom siljish kuzatiladi. Benzol va piridinning UB spektrlari bir-biridan farq qilishi lozimdek tuyulsa ham, ularning B-yutilishi (~250 nm) bir-biriga juda yaqin va o'xshaydi.


Og'ir elementlar akvakomplekslarining rangli bo'lishi d-orbitaldagи elektronlar soni bilan belgilanadi.  $d^{10}$  ionlari (rux, kadmiy) hosilalari rangsiz, agar d-orbital qisman to'lgan bo'lsa, ular rangli bo'ladi (2.5-jadval). Bu ionlarning kompleks birikmalari rangini markaziy ion d-orbitallarining parchalanishi belgilaydi. Markaziy ionning ligandlar qurshovidagi d-orbitallarining parchalanishi va ayniya holatlar orasidagi farq ularning yutilish spektrini va rangini belgilaydi. Masalan,  $\text{Cu}^{2+}$  ioni uchun besh karra ayniya holatdagi 3d-orbitalining energetik darajasi ligand maydoni ta'sirida hosil qilgan konfiguratsiyasiga qarab turlicha parchalanadi va har xil spektrlar hosil qiladi

### Asosiy xromofor guruhlari

Kuzatiladigan moddaning UB spektridagi 200-800 nm soha oralig'ida yutilish maksimumlari qayd qilinmasa, bu modda tarkibida oralatma qo'shbog' sistemalari, poliyen sistemalar, automatik halqa, karbonil guruhlari yo'qligining ishonchli isbotidir.




200 nm dan yuqorida  
yutilish maksimumi yo'q



$\lambda_{\text{max}} = 258$  nm  
( $\xi = 7200$ )

Bu xil belgilar modda tuzilishini osonlik bilan aniqlashga imkoniyat yaratadi. Oralatma diyen sistemalarining UB-spektrlarida ruxsat etilgan yutilish ( $\pi \rightarrow \pi^*$ ) maksimumlari 210-270 nm oralig'ida kuzatiladi va ularning tuzilishi bilan belgilanadi, ammo erituvchining tabiatи spektrga ta'sir etmaydi. Oralatma diyen sistemalaridagi ( $\pi \rightarrow \pi^*$ ) yutilish maksimumlariga ularning konformatsion holati katta ta'sir etadi. Ma'lumki, ochiq zanjirli diyenlar ko'pincha transoid shakllarda barqarordir va energetik jihatdan qulaydir. Yopiq zanjirli birikmalarda diyen sistemalarining konformatsion tuzilishlari odatda stabillashgan bo'lib, ularning tuzilishi va tavsiflari quyidagicha:



Ichki halqali diyenlardan transoid sistemali diyenlarga o'tish jarayonida yutilish maksimumlarining 15-20 nm ga siljishi va molyar yutilish koeffisiyenti  $\xi = 10000-20000$  chegarasida oshadi. Oddiy hollarda diyenlarning izomerlarini bir-biridan UB-spektrlar yordamida parametrlarning o'rtacha qiymatlaridan foydalanib hisoblash mumkin:  $\lambda_{\max} = \pm 18$  nm va  $\xi \approx \pm 12000$ . Oralatma diyen sistemalarining UB-spektrlaridagi yutilish maksimumlariga alkil o'rnbosarlari ma'lum ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sirni ularning kuchli induktiv effekti bilan izohlash mumkin. Bu ta'sirlarning kattaligi Vudvord qoidasiga ko'ra aniqlanadi: qo'shimcha alkil guruuhlar oralatma qo'shbog' sistemasidan uzoqda joylashgan bo'lsa, aynan uning ta'siri kuchli emas; diyen sistemalarining 1- va 4-holatdagi uglerod atomlari bilan birikkan alkil o'rnbosarlari yutilish maksimumlarini 7-10 nm gacha, 2- va 3-holatdagi o'rnbosarlar – 3-4 nm gacha batoxrom siljitadi.

jadval


Ochiq va yopiq zanjirli birikmalarda diyen sistemalarining konformatsion tuzilishlari

T/r	Xromofor guruhlar	Konformatsiya	$\lambda_{\max}$ , nm	
1	trans-CH <sub>2</sub> =CH-CH=CH <sub>2</sub>	T	218	23 000
2	CH <sub>3</sub> -CH <sub>2</sub> =CH-CH=CH <sub>2</sub>		223	25 000
3	3-metilensiklopenten	BT	234	14 000
4	Siklopentadiyen-1,3	BSI	240	3 400

5	Siklogeksadiyen-1,3	BSI	258	7 200
6	1,2-dimetilensiklopentan	BSE	243	12 000
7	3-metilensiklogeksen	BT	231	19 800
8	1,2-dimetilensiklogeksan	BSE	243	12 000
9	Sikloheptadiyen-1,3	BSI	248	76 000
Yenallar				
10	H <sub>2</sub> C=CH-CHO		203	12 000
11	H <sub>2</sub> C=C(CH <sub>3</sub> )-CHO		214	11 700
12	(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> C=C(CH <sub>3</sub> )-CHO		240	13 500
Yenonlar				
13	H <sub>2</sub> C=CH-CO-CH <sub>3</sub>		203	9 600
14	(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> C=C-CHCO-CH <sub>3</sub>		231	11 520
To'yinmagan karbon kislotalar				
15	H <sub>2</sub> C=CH-COOH		200	10 000
16	(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> C=CH-COOH		216	12 000
Izoh: T - transoid, BT - biriktirilgan transoid, BSI - biriktirilgan sisoid halqa ichkarisida, BSE - biriktirilgan sisoid halqa tashqarisida (ekzosiklik).				

Diyen sistemalariga 5- va 6-a'zoli halqalar birikkan bo'lsa, ular ikki alkil o'rribosarlari kabi hisoblanadi. Amalda Vudvord qoidasi alitsiklik diyen sistemalarga qaraganda halqali sistemalar uchun aniqroq bajariladi, bu o'zgarishlarning asosiy sababi ochiq zanjirli diyen uglevodorod molekulasi tuzilishining koplanarligi buzilishi bilan tushuntirish mumkin.

Polien tizimi bor organik modda molekulasi tarkibidagi oralatma qo'shbog' sistemasiga yangi qo'shbog'ning qo'shilishi UB-spektridagi yutilish maksimumini kuchli batoxrom siljishiga olib keladi:




Oralatma qo'shbog'lar sistemasida ularning soni oshib ketsa, UB-spektrdagи yutilish maksimumi ko'rish sohasida qayd qilinadi va bunday moddalar rangli hisoblanadi.

**Karbonil guruhi** tutgan to'yingan aldegid va ketonlar UB-spektrlarida yutilish maksimumi  $\lambda_{\max} = 275\text{-}290$  nm sohasiga to'gri kelib, elektronlarning  $n \rightarrow \pi^*$ -o'tishiga mos keladi ( $\pi \rightarrow \pi^*$ -elektron ko'chishiga mos keluvchi intensiv ruxsat etilgan yutilish maksimumi spektroskopning o'lchov diapazoni chegarasidan chetga chiqib ketadi). Bu elektron o'tishi ta'qilangan ko'chish hisoblangani uchun

uning maksimumi juda kichik qiymatga ega. Shuning uchun karbonil guruhi tutgan to'yingan aldegid va ketonlarni identifikasiyalashda ma'lum qiyinchiliklar tug'iladi.

$\alpha,\beta$ -to'yinmagan aldegid va ketonlarni UB spektrlarida karbonil guruhining intensivligi katta  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlar va intensivligi juda kichik bo'lgan  $n \rightarrow \pi^*$  taqiqlangan o'tishlari kuzatiladi. To'yingan aldegid va ketonlarning spektrlariga nisbatan bu yutilish chizig'i to'lqin uzunligi katta tomonga kuchli siljiydi.  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan aldegid va ketonlarning qo'shbog'iga nisbatan har bir  $\alpha$ - va  $\beta$ -holatiga nisbatan o'rribosarlar-ning kiritilishi asosiy yutilish ( $\pi \rightarrow \pi^*$ ) maksimumlarini  $\approx 10$  nm gacha batoxrom siljishiga olib keladi. Bu kattalik oddiy hollarda quyidagi asosiy xromoforlar (I)–(IV) uchun o'rribosarning kiritilishi natijasida har bir yutilish maksimumlarining siljishlarini hisoblab topish uchun imkoniyat beradi:



Bu qoida  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan aldegid va ketonlarning faqat trans-izomerlari spektrlariga xos bo'lib, sis-izomerlari uchun qoidadan ancha chetlanishlar kuzatiladi.

**$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbon kislotalar.** To'yingan karbon kislotalartar kibidagi karbonil guruhi uchun  $n \rightarrow \pi^*$  o'tishlarining yutilishi kichik intensivlikka ega bo'lib  $\approx 200$  nm sohasida kuzatiladi va amalda bu spektr yordamida ularning tuzilishini aniqlash imkoniyati bo'lmaydi. Masalan sirka kislotasining UB spektrida:



$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbon kislotalar, masalan akril kislotasining UB-spektridagi yutilish maksimumi ( $\pi \rightarrow \pi^*$ ) deyarli shu sohada qayd etiladi, ammo uning intensivligi yuqori bo'ladi:



Bu kislotalarning tarkibidagi  $\alpha$ -holatiga o'rribosarlar kiritilsa, yutilish maksimumi taxminan  $\approx 10$  nmga batoxrom siljiydi,  $\beta$ -holatidagi o'rribosar –  $\approx 5$  nmga batoxrom siljitadi. Akril kislotsasi uchun olingan yutilish spektri kattaliklaridan foydalanib, boshqa to'yinmagan karbon kislotalari uchun spektr parametrlarini hisoblash mumkin hamda ularning geometrik tuzilishidagi farq uncha katta ta'sir ko'rsatmaydi.  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbon kislotalarning efirlari, amidlari, xlorangidrid va angidridlarining spektrlarini ham amalda to'yinmagan karbon kislotalar-ning spektrlaridan deyarli farq qilmaydi.

**Nitrobirkimlar** uchun UB-spektrlarining intensiv yutilish ( $\pi \rightarrow \pi^*$ ) maksimumi sohasi ( $\lambda_{\text{maks}} \approx 200\text{nm}$ ,  $\xi \approx 5\ 000$ ) bo'lib, undan tashqari intensivligi kichik bo'lgan ta'qilangan ( $n \rightarrow \pi^*$ ) o'tish esa  $\lambda_{\text{maks}} \approx 276\text{-}380\text{nm}$  sohasida ( $\xi \approx 15\text{-}35$ ) kuzatiladi. O'rribosarlarning tabiatini spektr ko'rinishiga deyarli ta'sir etmaydi.

Erituvchining qutbliligi oshgan sari  $n \rightarrow \pi^*$  yutilish chizig'i quyi chastotali sohaga siljiydi. Shuning uchun nitro-birikmalarining UB-spektrlaridan ko'p ma'lumot olish imkoniyati yo'q.

Besh a'zoli geterohalqali birikmalar benzol kabi UB-spektrida ikki yutilish chizig'ini namoyon qiladi: ularning biri qisqa to'lqinli sohada intensiv va to'lqin uzunligi katta sohada kichik intensivlikdagi yutilish chiziqlariga ega boladi.


Fizik-kimyoviy tadqiqotlar jarayonida UB-spektroskopiyasidan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

1. Ma'lum va noma'lum moddalarning UB-spektrini bir xil sharoitda olib, ularni o'zaro bir-biriga taqqoslash yo'li bilan o'xshash va farqlarini aniqlash.

2. Molekulada vodorod bog'i mavjudligi batoxrom siljish borligi bilan aniqlanadi.

3. Aromatik uglevodorodlar hosilalarining UB-spektrlari yordamida benzol halqasidagi o'rnbosarlar o'rnini aniqlash mumkin.

4. *Sis-trans* izomerlarni farq qilishda UB-spektrlaridan unumli foydalanish imkoniyati katta. *Trans*-izomerlar odatda *sis*-izomerlarga nisbatan nurni ko'proq yutadi, natijada yutilish maksimum-lari to'lqin uzunligi katta sohaga siljiydi.



Rasm. Sis- (1) va trans- (2) stilben(1,2-difeniletlen)ning UB-spektri.

## INFRAQIZIL (IQ-) SPEKTROSKOPIYASI

Optik spektroskopianing ikkinchi eng ko'p tarqalgan turi infraqizil spektroskopiyadir. Bu usul moddalarning tuzilishini o'rganishda eng kerakli ma'lumotlarni beradigan fizik usullardan biri hisoblanadi. Molekulalarning tebranma spektrlari amalda infraqizil spektroskopiya usuli bilan aniqlanadi. Tebranma spektroskopianing yutug'i shundaki, amalda har qanday noorganik yoki organik moddalarnigaz, suyuq va qattiq agregat holatida tadqiqot qilish mumkin.

Moddaga ma'lum kvant energiyali ( $h\nu$ ) nur ta'sir etilganda uning ichki energiyasi, aylanma, tebranma harakatlari va valent elektronlarining energiyalari

ortadi. Aylanma va tebranma harakatlar molekulaning normal harakati bo'lib, nur energiyasi uning kinetik energiyasini oshiradi. Faqat nurlar  $\Delta E = h\nu$  energiyasi elektronlar kvant pog'onalariga o'tish energiyasiga ( $\Delta E$ ) mos kelsagina, energiya yutiladi va spektr kuzatiladi. IQ-spektr sohasi ingliz olimi U. Gershel (1738-1822 y.y.) tomonidan 1800-yilda kashf qilingan bo'lsa ham, taxminan 100 yildan keyin amerikalik olim Koblens IQ-spektroskopiyaga bag'ishlangan monografiya chop etib, moddalarning tuzilishi va ularning spektrlari orasidagi bog'lanishni bayon qildi. Molekuladagi atomlarning tebranishi bilan bog'liq ilmiy ishlar olib borilgan bo'lsa ham, olingan natijalarning amalda qo'llanilishiga hech kim e'tibor bermagan edi. IQ-spektroskopiyani amalda qo'llanishi ikkinchi jahon urushi yillari davrida kimyo sanoati uchun har xil rezina mahsulotlari, neftdan olinadigan mahsulotlar sifatini tekshirishda, antibiotiklardan penitsillining tuzilishini aniqlashda keng qo'llanildi. Hozirgi davrda bu usul boshqa fizikaviy tadqiqot usullarining ajralmas bir qismi bo'lib qoldi.

Odatda molekula tebranishi uchun kvant energiyalari elektromagnit to'lqinlar tebranish chastotasi  $10^{12}$ - $10^{14}$  Hz qiymatga ega bo'lib,  $\lambda=1-15$  mkm yoki to'lqin soni  $v=400-4000$   $\text{sm}^{-1}$  oralig'ida bo'lgan nurlar energiyalariga mos tushadi.

**IQ-spektrlarini olish shartli ravishda asosan uchga bo'linadi:**

- yaqin IQsoha       $4000-14300 \text{ sm}^{-1}$
- o'rta IQsoha       $400-4000 \text{ sm}^{-1}$
- uzoq IQsoha       $400-700 \text{ sm}^{-1}$

Bu sohalardagi nur to'lqin uzunliklarini to'la o'tkazish uchun spektroskoplardauch xil monokristall linzalari ishlatiladi: LiF –  $2000-3800 \text{ sm}^{-1}$ , NaCl –  $700-2000 \text{ sm}^{-1}$ , KBr –  $400-700 \text{ sm}^{-1}$ .

***IQ-spektrlardan foydalanib quyidagilar aniqlanadi:***

1. Har xil moddalarning IQ-spektrlarini solishtirib, ma'lum moddadan yangi olingan modda farqini va uning tozaligini aniqlash mumkin.

2. Izomerlarni bir-biridan ajratish mumkin:  $\text{C}_2\text{H}_6\text{O}$  formula bilan etil spirti va dimetil efirining ham tarkibini ifodalash mumkin. Suv molekulasi uchun  $\nu_{(\text{O}-\text{H})}=3200-3600 \text{ sm}^{-1}$  oralig'ida qayd qilinsa, spirtlarda va fenollarda bu valent tebranish chastotasi ularning tuzilishiga ko'ra turlicha sohada namoyon bo'ladi:

- a) birlamchi spirtlarda –  $3640 \text{ sm}^{-1}$ ; b) ikkilamchi –  $3630 \text{ sm}^{-1}$ ;
  - c) uchlamchi –  $3620 \text{ sm}^{-1}$ ; d) fenollarda –  $3610 \text{ sm}^{-1}$ ;
  - e) polimerlarda –  $3200-3400 \text{ sm}^{-1}$ .
- $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$  ning IQ-spektrida  $\nu_{(\text{O}-\text{H})}$  va  $\nu_{(\text{C}-\text{O})}$  kuzatiladi.
  - $\text{CH}_3-\text{O}-\text{CH}_3$  spektrida faqat  $\nu_{(\text{C}-\text{O})}$  kuzatiladi.


3. Noma'lum modda molekulasida qanday funksional guruuhlar borligini aniqlash mumkin. Misol uchun, amino guruhi ( $\text{NH}_2$ ) yoki gidroksil guruhi ( $\text{OH}$ ) tutgan birikmalarda vodorod atomlari biror radikal bilan almashtirilsa, tegishli  $\nu_{(\text{N}-\text{H})}$  yoki  $\nu_{(\text{O}-\text{H})}$  yo'qoladi.

Aldegidlaruchun  $\nu_{(\text{C}=\text{O})}=1705-1725 \text{ sm}^{-1}$  sohada qayd etiladi. Agar aldegid tarkibidagi radikalning vodorod atomlaridan biri elektronakseptor guruuhlar (F, Cl,  $\text{C}\equiv\text{N}$  va boshqa) bilan almashtirilsa,  $\nu_{(\text{C}=\text{O})}$  valenttebranishlari yuqori chastotali sohaga ( $1725-1745 \text{ sm}^{-1}$ ) siljiydi. Aksincha, elektrononor guruuhlar, qo'shbog'li o'rnbosar yoki aromatik halqa kiritilsa, tebranishlar quyi chastotali sohaga ( $20-40 \text{ sm}^{-1}$ ) siljiydi.

4. Qaytar organik reaksiyalarni sifat va miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin.

5. Molekulalarning konfiguratsiyasi va konformatsiyalari haqida tegishli xulosalarni chiqarish mumkin.

6. Bosqichli reaksiyalar yo'nalishini IQ-spektrlari yordamida kuzatish mumkin:



A-modda uchun:  $\nu_{(\text{O}-\text{H})}=3360 \text{ sm}^{-1}$ ,  $\nu_{(\text{C}-\text{Cl})}=663 \text{ sm}^{-1}$ ,  $\nu_{(\text{O}-\text{C})}=1080 \text{ sm}^{-1}$ ,

B-modda uchun:  $\nu_{(\text{C}-\text{Cl})}$  yo'qoladi, yangi  $\nu_{(\text{C}\equiv\text{N})}=2252 \text{ sm}^{-1}$  paydo bo'ladi,

C-modda uchun:  $\nu_{(\text{O}-\text{H})}$  yo'qoladi va yangi  $\nu_{(\text{C}=\text{C})}=1620 \text{ sm}^{-1}$  paydo bo'ladi,

D-modda uchun:  $\nu_{(\text{C}\equiv\text{N})}$  yo'qoladi va yangi  $\nu_{(\text{C}=\text{O})}=1720 \text{ sm}^{-1}$  paydo bo'ladi.


### ***IQ spektrlarning qo'llanish sohalari:***

- moddalarni identifikatsiyalash;
- molekuladagi alohida kimyoviy bog'lar mavjudligini aniqlash;
- ichki va molekulalararo o'zaro ta'sirlarni aniqlash;
- izomeriya hodisalarining tadqiqoti;
- vodorod bog'lari mavjudligini aniqlash;
- zarracha o'lchamlarini aniqlash;
- materialshunoslikda har qanday noorganik va organik moddalar va materiallarni aniqlash;
- organik sintezda reaksiya mexanizmlarini aniqlash va isbotlash;
- har qanday ishlab chiqarish jarayonlarining nazorati.


### ***IQ spektroskopiyadan foydalanish yo'llari:***

- tebranish chastotalarining tahlili bilan noma'lum modda tuzilishini isbotlash;

- spektrda keragidan ortiqcha tebranish chastotalari mavjud bo’lgan hollarda modda tozaligi haqida xulosa berish;
- spektrdagi ”barmoq izlari” sohasini ko’rib, alohida yangi modda-larni identifikatsiyalash.



Toluolning IQ spektri.



Sirka kislota etil efirining IQ spektri.

Ko’p atomli molekuladagi tebranishlarning matematik modelini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. *Valent (stretching – inglizcha cho’zilish, garmonik harakat)* tebranishlar. Molekuladagi normal tebranishlar natijasida kimyoviy bog’larning uzunligi o’zgaradi va bu xildagi tebranishlar ν (nyu) harfi bilan ifodalanadi. Ular simmetrik ( $\nu_s$ ) yoki antisimetrik ( $\nu_{as}$ ) tebranish chastotalariga bo’linadi.

2. *Deformatsion (bending – burilish, bukilish)* tebranishlar. Modda molekulasidagi tebranishlar oqibatida valent bog’lari orasidagi burchaklar

o'zgarganda deformatsion tebranishlar qayd etiladi. Molekuladagi deformatsion tebranishlar bir tekislikda sodir bo'lsa,  $\delta$  (delta) va bu tebranishlar bir tekislik chegarasidan chiqsa,  $\pi$  (pi) harflari bilan belgilanadi.

Birinchi holda atomlar orasidagi masofa cho'zilishi yoki qisqarishi mumkin. Molekula atomlari orasidagi harakatlar bir xil bo'lsa, (bog' uzuligining qisqarishi yoki cho'zilishi) *simmetrik*, agar har xil bo'lsa, *antisimmetrik* tebranishlar deyiladi.

Deformatsion tebranishlarda bir atom bilan bog'langan qo'shni 2 atom bog'lari orasidagi burchak o'zgaradi, yoki bir guruh atomlar molekulaning qolgan qismiga nisbatan harakatlanadi, ammo bunda shu atomlar orasidagi masofa o'zgarmasdan qoladi. Bu xildagi tebranishlar aylanma (*twisting* – inglizcha burilish, o`ralish), mayatniksimon (*rocking* – tebranish) va torsion (*torsion* – burama), qaychisimon (*seissoring* – qaychi bilan kesish), yelpig'ichsimon (*wassing* – yelpish) deyiladi. Molekuladagi atomlarning erkinlik darajasi ko'p bo'lib, ularning yig'indisi uning umumiy erkinlik darajalari yig'indisini ifodalaydi. Molekuluning har bir atomi dekart koordinatalari ( $x$ ,  $y$ ,  $z$ ) ga ko'ra uchta erkinlik darajasiga ega. Shuning uchun " $n$ " atomdan iborat molekuluning  $3n$  ta erkinlik darajasi bor. Agar molekuladagi atomlar chiziqli tuzilishdan farq qilsa, uchta erkinlik darajasi uning aylanma harakatinibelgilaydi va uchtasi chiziqli harakatdir. Bulardan qolgan ( $3n-6$ ) erkinlik darajasi tebranma harakatlatga to'g'ri keladi yoki ular asosiy tebranma harakatlar deyiladi. Suv molekulasida 3 ta atom borligi uchun unda 3 ta asosiy tebranish chastotasi bor.

Mexanika fani uchun yaratilgan Guk qonunidan foydalanib, garmonik valent tebranishlarni taxminan aniqlash mumkin:

$$\nu = \frac{1}{2\pi C} \sqrt{\frac{F}{m_z}} \text{ yoki } \nu = \frac{1}{2\pi C} \left( \frac{F}{\frac{M_x M_y}{M_x + M_y}} \right)^{\frac{1}{2}}$$

bu yerda  $\nu$  – tebranish chastotasi ( $\text{sm}^{-1}$ ),  $C$  – yorug'lik tezligi ( $\text{sm/sec}$ ),  $F$  – bog'ning kuch doimiyligi ( $\text{din/sm}$ ) yoki boshlang'ich holatga qaytaruvchi kuch,  $M_x$  va  $M_y$  –  $x$  va  $y$  atomlarining tegishli massasi ( $\text{g}$ ).  $m_z$  – atomlarning keltirilgan massasi, ya'ni ayrim massalarning o'rtacha miqdori:

$$\frac{1}{m_z} = \frac{1}{m_1} + \frac{1}{m_2}; \quad m_z = \frac{m_1 \cdot m_2}{m_1 + m_2}$$

Agar molekuladagi atomlar soni  $n$  ta bo'lsa, uning asosiy tebranishlar soni  $3n+6$  ga tengligi isbotlangan va yuqorida keltirilgan edi. Bu tebranishlardan  $n-1$  soni valent tebranishlariga ya'ni molekuladagi atom yadolarining bog' chiziqlari bo'ylab tebranishlariga ( $\nu_{C-H}$ ,  $\nu_{C-O}$ ,  $\nu_{C-N}$ ,  $\nu_{C=C}$ ,  $\nu_{C=O}$ ,  $\nu_{C=N}$ ,  $\nu_{C \equiv N}$  va hokazo) mos keladi.

Valent tebranishlari chastotasi atom massasi va bog' energiyasi bilan xarakterlanadi. Molekuladagi atomlarning massasi oshgan sari valent tebranish chastotalari pasayadi:

$$\nu_{C-H} \approx 3000-2950 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C-C} \approx 1000 \text{ sm}^{-1}$$

Bog'larning karraligi (ya'ni, mustahkamligi) ortgan sari ularning tebranish chastotasi ham ortadi:

$$\nu_{C-C} \approx 1000 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C-N} \approx 1050 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C-O} \approx 1100 \text{ sm}^{-1}$$

$$\nu_{C=C} \approx 1600 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C=N} \approx 1650 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C=O} \approx 1700 \text{ sm}^{-1}$$

$$\nu_{C \equiv C} \approx 2200 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C \equiv N} \approx 2250 \text{ sm}^{-1}$$

### **Yadro magnit rezonans spektroskopiyasi (YaMR).**

#### **Ayrim organik moddalarning YaMR-<sup>1</sup>H spektrlari**

Organik birikmalar tarkibidagi protonlar va ularning YaMR-<sup>1</sup>H spektridagi signallari molekula tuzilishiga bog'liq va bir-biridan farq qiladi. Odatda vodorod eng ko'p tarqalgan element bo'lib, barcha organik birikmalar tarkibida uchraydi. Ikkinchini tomondan proton kimyoviy siljishi (signallari) intensivligi katta bo'lganligi uchun ularni YaMR-<sup>1</sup>H usuli bilan o'rghanish juda ko'p ma'lumot olishga imkoniyat yaratadi. Olib borilgan tajribalardan ko'rindan, protonlar asosan  $\delta = 0 \div 10$  m.h. sohasida signal beradi va spektr olishda etalon sifatida tetrametilsilan [ $\delta_{(TMS)}=0,00$  m.h.] ishlataladi. Turli funksional guruhlar tarkibidagi protonlarning xarakteristik signallari 6.10-rasmida berilgan bo'lib, ayrim signallar bir-birini qoplashi (ustma-ust tushishi) mumkin. Masalan, olefin protonlarining signallari aromatik halqa protonlari bilan yaqin sohada rezonanslashadi.

**Alkanlar va sikloalkanlar.** Normal alkanlar tarkibidagi protonlarning signallari kimyoviy sijishiga X-o'rnbosarlar turlicha ta'sir ko'rsatadi (6.10-rasm). Alkandagi X-o'rnbosarning elektromanfiyliги oshib borsa, metall guruhi protonlarining ekranlanishini kamaytiradi va protonning kimyoviy siljishi ( $\delta$ , m.h.) qiymatini kattalashtiradi.

O'rnbosar va tahlil qilinayotgan proton orasidagi uglerod zanjiri soni ortib borganda, masofa uzoqlashgan sari ularning ta'siri so'nib boradi:

$\text{CH}_3\text{Cl}$	$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{Cl}$	$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{Cl}$	
3,05	1,42	1,04	$\delta$ , m.h.

Shu xildagi o'rnbosarlar (X=Cl)ning soni ortib borishi bilan ham additiv ravishda kimyoviy siljish qiymati kattalashadi:

$\text{CH}_4$	$\text{CH}_3\text{Cl}$	$\text{CH}_2\text{Cl}_2$	$\text{CHCl}_3$	
0,23	3,05	5,33	7,26	$\delta$ , m.h.

O'rnbosarlarning induktiv effektini  $\delta$ -bog'lar bo'yicha elektron buluti siljishi oqibatidagi ta'siri bilan ifodalash mumkin. Nazariy jihatdan kimyoviy siljishlarni ifodalash imkoniyati bo'limgani uchun bu qiymatlar turli empirik usullar bilan aniqlanadi. Bu xildagi X-o'rnbosarlarning ekranlash effekti  $\text{XCH}_3 > \text{XCH}_2 > \text{XCH}$  qatorida kamayib boradi, masalan:



4,13

3,51

3,05

δ, m.h.

X–CH<sub>2</sub>–Y kabi ikkita turli (X va Y) o'rribosarlar tutgan metilen guruhi protonlarining kimyoviy siljishini aniqlash uchun **Shuleri** qoidasidan foydalanadilar:

$$\delta = 0,23 + S_x + S_y \quad (6.16)$$

S<sub>x</sub> va S<sub>y</sub> – effektiv ekranlash konstantalari (maqola, monografiya va bildirichlardagi jadvallardan olinadi). Bu qoidadan foydalanib, N-benzometilamin (C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>–CH<sub>2</sub>–NH–CH<sub>3</sub>) metilen guruhi protonlarining kimyoviy siljishini aniqlaymiz (6.11-rasm). Bu misolda S(C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>)=1,85; S(CH<sub>3</sub>NH)=1,57 bo'lsa, δ(CH<sub>2</sub>) signalini hisoblab topish mumkin:

$$\delta(CH_2) = 0,23 + 1,85 + 1,57 = 3,65 \text{ m.h.}$$

bu signal kattaligi eksperimental aniqlangan kimyoviy siljish qiymatiga mos keladi. 6.11-rasmda barcha protonlarning signaliva ularning integral intensivligi (5:2:3:1 kabi nisbatda) ko'rsatilgan.

**Sikloalkanlar.** Sikloalkanlar protonlarining kimyoviy siljishi halqa kattaligi, konformatsion shakli va boshqa fazoviy ta'sirlar bilan belgilanadi. Alkilalmashingan sikloalkanlardagi protonlarning kimyoviy siljishiga fazoviy effektlar eng ko'p ta'sir ko'rsatadi. 6.8-jadvalda bir necha sikloalkanlar halqasidagi protonlar kimyoviy siljishlarining qiymatlari berilgan. Bular orasida eng kuchli ekranlash ( $\delta=0,22$  m.h.) siklopropan uchun kuzatiladi.

**Alkenlar.** Etilen hosilalarining tarkibidagi protonlar kimyoviy siljishlarining diapazoni  $\delta$  4÷7,5 m.h. chegarasida qayd etiladi. Alkenlardagi almashinish effektlari fazoviy va induksion effektlar bilan belgilanadi. Etilen hosilalari protonlarining kimyoviy siljishlari haqidagi ma'lumotlar 6.9-jadvalda jamlangan.

Etilen hosilalari protonlarining kimyoviy siljishlari **Paskual-Meyer-Saymon** qoidasi asosida hisoblab topiladi:

$$\delta = 5,28 + S_{\text{gem.}} + S_{\text{sis.}} + S_{\text{trans}} \quad (6.17)$$

Masalan, *trans*-kroton kislotasi protonlarining kimyoviy siljishlari quyidagicha hisoblab topiladi.

$$\delta_{(H-2)} = 5,28 + S_{\text{gem}(COOH)} + S_{\text{sis}(CH_3)} = 5,28 + 0,69 - 0,26 = 5,71 \text{ m.h.} (5,82 \text{ m.h.})$$

$$\delta_{(H-3)} = 5,28 + S_{\text{gem}(CH_3)} + S_{\text{sis}(COOH)} = 5,28 + 0,44 + 0,97 = 6,69 \text{ m.h.} (7,04 \text{ m.h.})$$

Xuddi shuningdek, molekuladagi qolgan birgina proton uchun ham signaling o'rni hisoblab topilgan:  $\delta(COOH) = 12$  m.h.

**Arenlar.** Aromatik birikmalarda ekranlanish asosan mezomer effektlar ta'sirida kuzatiladi, ya'ni o'rribosarlar ta'sirida  $\pi$ -bog' elektron zinchliklarining siljishi bilan belgilanadi. Masalan, anilin molekulasiidagi elektron donor NH<sub>2</sub>-guruh ta'sirida *meta*-holatga nisbatan *ortho*- va *para*- holatlarida ekranlanish kuchliroq namoyon bo'ladi (6.12-rasm). Bu anilin misolida keltirilgan spektrdagi mezomer strukturalaridan ma'lum bo'lmoqda. Bundan tashqari bu spektrdan fenil halqasi protonlarining barchasi benzolga nisbatan kuchli ekranlangani ham ko'rilib

turibdi (6.12-rasm). Shu narsa ravshanki, aminoguruh o'zining musbat induktiv +M-effekti hisobidan halqadagi, ayniqsa yadroning *ortho*- va *para*-holatlardagi, elektron bulut zichligini oshiradi.

Elektron akseptor o'rribosar tutgan nitrobenzolda, teskari, manfiy induktiv (-M) effekti hisobidan halqadagi barcha protonlar deekranlangan. Nitroguruh benzol halqasi elektron buluti zichligini kamaytiradi. Ayniqsa aromatik halqaning *ortho*- va *para*-holatlardagi protonlari kuchli (tegishli ravishda  $\delta=8,17$  m.h. va  $\delta=7,69$  m.h.), *meta*-holatdagisi kamroq ( $\delta=7,53$  m.h.) deekranlangan.

Almashingan benzol hosilalari protonlarining kimyoviy siljishlari ( $\delta$ , m.h.) yaxshi darajada additivlik (mutanosiblik)ni ko'rsatadi. Ko'pgina o'rribosarlar uchun amaliy usul bilan ularning halqadagi protonlarning kimyoviy siljishlarga qo'shadigan hissasi aniqlangan. Bu uchun quyidagi empirik formuladan foydalanish qabul qilingan:


$$\delta_{(H)} = 7,27 + \sum S$$

chunki benzol protonlarining kimyoviy siljishi  $\delta$  7,27 m.h.da qayd etiladi. O'rribosarga nisbatan *ortho*-, *meta*- va *para*-holatlardagi protonlarning tegishli hissasi (inkrementi) ham aniqlangan. Hisoblab topilgan va tajribada o'lchab aniqlangan signal qiymatlar bir-biriga juda yaqin sonlarni tashkil etadi. O'rribosar hajmining kattaligi, ikki va undan ortiq o'rribosarlarning qo'shni holatlarda bo'lishi additivlik (mutanosiblik)ni buzadi.

**Alkinlar.** Atsetilen protonlarining ekranlanishi ilgari (6.6-rasm) muhokama qilingan edi. Atsetilen protonlarining rezonanslashuv sohasi –  $\delta_{(C-H)} \approx 2-3$  m.h.boshqa protonlarning signallari bilan bir-birini qoplaydi, shuning uchun ham bu sohadagi kimyoviy siljishlar faqat atsetilanga tegishli deb xulosa chiqarish doimo ham to'g'ri bo'lavermaydi. Ammo atsetilen molekulasiagi protonlar uzoq o'rribosarlar bilan ham o'zaro spin-spin ta'sirlashgani uchin, bu signallarning multipletligiga va spin-spin konstantalari qiymatiga qarab ham xulosa chiqarish mumkin. Atsetilen protonlarining kimyoviy siljishlari molekula tarkibidagi o'rribosarlarning elektromanfiyligi, tutash tizim va erituvchi tabiatini bilan bog'liq. Masalan, atsetilen tarkibidagi alkil guruh ekranlashni oshirsa, aril guruh kamaytiradi:

$HC \equiv CH$	$HC \equiv C - CH_3$	$HC \equiv C - C_6H_5$	
2,36	1,8	3,0	$\delta$ , m.h.

**Aldegidlar.** Aldegidlar protonining signali oson aniqlanadi, chunki bu protonning kimyoviy siljishi o'ziga xos tabiatga ega va  $\delta=9-11$  m.h. maydonida rezonanslashadi. Spektr tahlili osonlik bilan karbonil guruh protonining signalini ajratishga imkon beradi. Masalan, propion aldegidi  $^1H$ -YaMR spektrining  $\delta=9,8$  m.h. maydonidagi triplet signal shundan darak beradi (6.15-rasm). O'rribosarlarning ta'siri sezilmas bo'ladi. Hatto karbonil guruhi qo'shbog'inining benzol halqasi bilan tutash tizimi ham kimyoviy siljishlarga aytarli ta'sir etmaydi:



2,36

1,8

3,0

 $\delta$ , m.h.

***OH, SH va NH protonlarining kimyoviy siljishi.*** OH,SH va NH guruhlari protonlarining kimyoviy siljishi juda katta maydonda rezonanslashadi (6.11-jadval). Signallarning o'rni eritma konsentratsiyasi, harorat, erituvchi tabiatи va suv aralashgani bilan belgilanadi. Bundan tashqari, bu guruh protonlari ichki va molekulalararo vodorod bog' hosil qilishda ham qatnashadi. Shuning uchun bu birikmalarning YaMR-<sup>1</sup>H spektrlarini tahlil qilishda ehtiyojkorlik talab etiladi.

Gidroksil guruh protonlarining signallari YaMR <sup>1</sup>H shkalasi boyicha to'liq egallaydi. Spirtlarning spektrini olish jarayonida ular CCl<sub>4</sub> eritmasida cheksiz suyultiriladi va ichki molekulyar bog'lar yo'qotiladi. Fenollarning OH guruh protoni signallari spirtlarnikiga nisbatan 3.m.h. kuchsiz maydon sohasiga siljiydi. Meyer, Sayka va Gutovskiylar fenppardagi OH-protonlari ekranlanishi kamayishini C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>=O<sup>+</sup>-H rezonans struktura hosil bo'lishi bilan tushuntirishadi. Arilamindagi protonlar signallarining alkilamin protonlariga nisbatan kuchsiz maydonga siljishi ham elektronlar effekti bilan tushuntiriladi.

## IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR

### **1-amaliy mashg'ulot: Organik birikmalarning hozirgi zamон tuzilish nazariyasi. Fazoviy tuzilish. Tuzilish va xossa.**

#### **R E J A:**

1. Organik birikma xossasiga ta'sir etuvchi omillar: tarkib va kimyoviy tuzilish.
2. Organik birikalar xossalariga sifat va miqdoriy tarkibning, kimyoviy tuzilishning ta'siri.
3. Organik birikma xossalariga elektron tuzilishning, sharoit va muhitning ta'siri.

Rus olimi A.M. Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasi organik kimyoning asosiy nazariyasidir. U organik kimyoning barcha nazariy tushunchalari asosida yotadi. Nazariyaning ikki xil ta'rifi mavjud: A.M. Butlerov ta'rifi va hozirgi zamон ta'rifi.

➤ **A.M. Butlerov ta'rifi:**

---

*Murakkab zarrachalarining kimyoviy tabiatи uning tarkibiga kiruvchi elementlar zarrachalarining tabiatiga, ularning miqdoriga va kimyoviy tuzilishiga bog'liq.*

---

Bu ta'rifdagi asosiy fikr moddaning kimyoviy tuzilishi bo'lib, u molekuladagi atomlar bir-bir bilan qanday tartibda bog'langanligiga e'tibor beradi. Molekula tarkibidagi atomlar xili va ularning soni bir xil bo'lsayu, ammo ular bir-bir bilan turli tartibda bog'langan bo'lsa, ularning xossalari ham xar xil bo'ladi. Ma'lumki, bunday moddalar **izomerlar** deb ataladi. Modda tarkibidagi atomlar bir-biri bilan qanday bog'langanligidan qat'iy nazar, ular bir-biriga ta'sir ko'rsatib turadi, shu ta'sir tufayli moddaning xossalari shakllanadi va bu bilan u atomlarning oddiy mexanik aralashmasidan farq qiladi.

A.M Butlerov ta'rifi moddaning xossalari uning elektron va fazoviy tuzilishi ham ta'sir qilishini hisobga olmaydi.

➤ **Hozirgi zamон ta'rifi:**

---

## *Organik birikmalarning fizik va kimyoviy xossalari uning tarkibiga hamda kimyoviy, elektron va fazoviy tuzilishiga bog'liq.*

---

Bu ta'rif moddaning xossalariaga bog'liq bo'lgan hamma faktorlarni hisobga oladi. quyida keltirilgan misollar fikrimizni tasdiqlaydi.

### **Misollar:**

#### *1. Metan bilan n-geksanning xossalari solishtiring.*

**Yechish:** metan  $\text{CH}_4$  ham, geksan  $\text{C}_6\text{H}_{14}$  ham faqat uglerod va vodoroddan tashkil topgan ulgerovodoroddir. Ular bir-biridan tarkibidagi uglerod va vodorod atomlarining soni bilangina farq qiladi. Shuning uchun ular bir-biridan avvalo, fizik xossalari bilan keskin farq qiladi. Metan odatdagi sharoitda gaz, geksan esa suyuqlikdir. Ularning kimyoviy xossalarda ham farq bor. Masalan, termik kreking vaqtida geksan metanga nisbatan oson parchalanadi, xlorlash, nitrolash va oksidlash reaksiyalariga ham geksanda osonroq ketadi.

#### *2. Etil spirti bilan dimetil efirning xossalari solishtiring.*

**Yechish:** Etil spirti ham, dimetil efiri ham bir xil tarkib  $\text{S}_2\text{N}_6\text{O}$  ga ega. Ulardagi atomlar soni ham, turi ham bir xil. Ammo bu birikmalar bir-biridan tarkibidagi atomlarning o'zaro bog'lanish tartibi bilan farq qiladi:




Shuning uchun ularning xossalari ham har xildir. Masalan, oddiy sharoitda etil spirti suyuqlik, dimetil efiri esa gazdir. Etil spirti natriy metali bilan reaksiyaga kirishadi, dimetil efiri esa reaksiyaga kirishmaydi va h.k.


#### *3. Ammiak bilan trifenilaminning xossalari solishtiring.*

**Yechish:** Ammiakda ham, trifenilaminda ham markaziy atom azot bo'lib, ammiak va unga o'xshash birikmalarning asosli xassasini shu atomdagi bo'linmagan bir juft belgilaydi. Shu elektron hisobiga u suvdan yoki kislotalardan o'ziga proton biriktirib ammoniy birikmalarini hosil qiladi. Agar azot atomi atrofidagi elektron zichlik vodorodlar o'rniga biror guruh kiritilishi natijasida ortsa, bu moddaning asosligi ortadi; agar elektron zichlik kamaysa – asoslik ham

kamayadi. Ammiakdagi bita vodorod o'rniga fenil guruhi kiritilsa asoslik ancha kamayadi. Ma'lumki, ammiakka nisbatan anilin  $C_6H_5 - NH_2$  kuchsiz asosdir. Ammiakdagi ikkinchi N fenil guruhiga almashtirilsa difenilamin hosil bo'ladi, uning asosligi anilinning asosligidan ham kichikdir. Bu birikmalardagi asoslikning ammiak asosligiga nisbatan kamayishi azot atrofida elektron zichlikning fenil guruhlar ta'sirida kamayishi bilan tushuntiriladi.




Bunday ta'sir natijasida azot atomining o'ziga proton biriktirish xususiyati kamayadi. Trifenilaminda esa uchta fenil guruhi azot atrofidagi elektron zichlikni shunchalik kamaytirib yuboradiki, natijada trifenilamin asoslik xususiyatini yo'qotadi.




#### *4. sis- va trans buten-2 larning xossalalarini solishtiring.*

**Yechish:** Buten-2 ikkita fazoviy (geometrik) izomerlar shaklida bo'ladi. Ular sis- va trans-izomerlardir:



sis-buten-2



trans-buten-2

Ularning fazoviy tuzilishlari har xil bo'lganligi tufayli, tarkibi va kimyoviy tuzilishi bir xil bo'lishiga qaramasdan, xossalari har xildir. Masalan, ular suyuqlanish va qaynash temperaturalari bilan, gidrogenlash issiqligi bilan, birikish reaksiyalaridagi reaksiyon qobiliyati bilan bir-biridan farq qiladi.

## MOLEKULA TARKIBIDAGI ATOMLARNING O'ZARO TA'SIRI

Kaysi modda natriy metalli bilan reaksiyaga osonroq kirishadi:


A) metanol;

B) suv;

V) etanol.

spirtlarda gidroksil guruxni O – N bog’ining kutblilik darajasiga radikalning ta’siri ko’rsatiladi (3-rasm):


Рис.3



Demak, suv bilan reaksiya eng faol o’tadi. Alkil radikali kislород atrofidagi elektron zichligini orttiradi, natijada gidroksilga birikkan vodorodning kislotali xususiyati kamayadi.

Endi benzol, aniqrog’i fenil radikaliga gidroksil birikib, ularni bir biriga ko’rsatadigan ta’sirni taxlil qilishimiz lozim bo’ladi. Spirtlardagi alkil radikaliga nisbatan fenil teskari, ya’ni qarama-qarshi ta’sir ko’rsatadi: kislород atrofidagi elektron zichlik xalqa tomon tortilishi (kislородning TEJi va xalqaning  $\pi$ -elektronlari orasidagi kon'yugasiya, mezomer effekti) natijasida O – N bog’i zaiflashib, vodorodning xarakat erkinligi keskin ortadi. Boshqacha aytganda, vodorodning musbat zaryadi ortadi, ya’ni kislotali xususiyati ko’payadi! Bu jarayon quyidagi rasmida strelka orqali ko’rsatilgan. Nazariyaga asoslanib qilingan bashorat amalda tasdiqlanadi - fenol o’zini kislota sifatida namoyon qiladi va karbol kislota nomi bilan xam yuritiladi (4-rasm).



Рис.4



79

Xulosa qilib aytganda, fenoldagi gidroksil guruxining vodorodi etanol va suvga nisbatan sezilarli darajada ko'proq kislota tabiatiga ega. Kislotali dissosiasiyanish konstantasining logarifmli ko'rsatgichi  $rK_a$  fenol uchun taxminan  $1 \cdot 10^{-10}$  ga teng. Natriy metall va natriy ishqori bilan natriy fenolyati xosil qilishi fenol kislotaligini isbotlaydi (5-rasm). Xosil bo'lgan fenolyatdan karbonat angidridi fenol chiqarishi esa fenol judayam kuchsiz kislota

рис.5




zkanligini ko'rsatadi.

Yuqorida biz aromatik xalqani gidroksilga ko'rsatgan ta'sirini kuzatdik. Ammo, o'z navbatida gidroksil gurux xam aromatik xalkaga kuchli ta'sir etadi. Masalan, benzolga bromli suv qo'shganda oddiy sharoitda reaksiya o'tmaydi. Fenolga bromli suv ta'siri natijasida katalizator ishtirokisiz oson xosil bo'lgan 2, 4, 6 – tribromfenol cho'kmaga tushadi (6-rasm). Gidroksil gurux benzol xalqasini elektrofil reaksiyaga kirish kobiliyatini keskin






faollashtirib

yuboradi.

рис.6



Xulosa qilib aytganda, gidroksil gurux faollashtiruvchi orto-, para-orientant vazifasini bajaradi. Umumiy xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim bo'ladi: fenilni gidroksilga ta'siri natijasida fenol kislota xossasiga ega bo'ladi. Gidroksil fenilga ko'rsatgan ta'siri natijasida esa benzol xalqasi keskin faollashadi.



## **2-amaliy mashg'ulot: Izomeriya turlari. Dinamik izomeriya. Tautameriya va reaksiyaga kirishish markazining ko'chishi.**

### **R E J A:**

1. Struktura, geometrik, optik va dinamik izomeriya turlari. Metameriya. Burilish izomeriyasi.
2. Tautomeriya va konformasilar dinamik izomeriya turlaridir. Izomeriya va tautomeriya turlariga misollar yechish.
3. Izomerlar va tautomerlarni nomlash bo'yicha misollar yechish.

### **Amaliy mashg'ulot davomida bajariladigan mashqlar**

1. Quyidagi birikmalarning proyeksiyon formulalarini yozing va enantiomerlarini (agar ular bo'lsa) R va S simvollari bilan belgilang: a) 2-xlorpentan; b) 2-metil-3-xlorpentan; d) 3-xlorgeksan; e) 3-metil-3-xlorpentan; f) 1-brom-2-metilbutan.


2. Quyidagi molekulalarda xiral atomlar borligi yoki yo'qligini aniqlang: a) 2-brompentan; b) 3-bromgeksan; d) 1-brom-2-metilpentan; e) 2-brom-2-metilbutan; f) 1-brom-2-metilbutan; g) 2-brom-3,3-dimetilpentan.

3. Quyidagi o'rribosarlarni, ular katta-kichikligining kamayib borishi tartibida joylashtiring:

- Br, -OH, -SH, -NH<sub>2</sub>, -CH<sub>3</sub>
- Cl, -CH<sub>2</sub>Cl, -CH<sub>2</sub>-CH<sub>2</sub>Cl, -CH<sub>2</sub>-CH(CH<sub>3</sub>) -CH<sub>2</sub>-CH<sub>3</sub>, -I
- CH=CH<sub>2</sub>, -CH<sub>2</sub>-CH=CH<sub>2</sub>, -COCH<sub>3</sub>, -NHCOCH<sub>3</sub>, -COOH
- CH(CH<sub>3</sub>)CH<sub>2</sub>CH<sub>3</sub>, -CH<sub>2</sub>CH(CH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, -C(CH<sub>3</sub>)=CH<sub>2</sub>, -SOCH<sub>3</sub>, -OSOCH<sub>3</sub>
- CH<sub>2</sub>-C≡CH, -C≡N, -N(CH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, -COOC<sub>2</sub>H<sub>5</sub>, -SO<sub>3</sub>H

4. Quyidagi har bir birikmaning nechta stereoizomeri bo'lishi mumkin? Ularning proyeksiyon formulalarini yozing. a) 2,2-dibrombutan; b) 2,3,4-trixlorgeksan; d) geksandiol-2,3 e) butandiol-2,3.

5. Birikmalarda xiral markaz bilan bog'langan o'rribosarlarni katta-kichikligining kamayib borishi tartibida qatorlarga joylashtiring:




6. Birikmalarning formulalarini yozing va enantiomerlarini (agar ular bo'lsa) belgilang: a) 3-brom-1-peten; b) 3-brom-4-metil-1-peten; d) metiletil-n-

propilizopropilmekan; e) olma kislotasi  $\text{HOOCCH}_2\text{CHOHCOOH}$ ; f) alanin  $\text{CH}_3\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$ .

7. Quyidagi birikmalarning qaysilari xiral va enantiomerlar holida mavjud bo‘la oladi? a) 1,5-dixlorpentan; b) 3-metilpentan; d) 1,2-dixlorpropan; e) 1,3-dibrombutan; f) pentandiol-2,3; g) bromftorxlorometan.

8. Har bir xiral markaz konfiguratsiyasini R,S-nomenklaturaga binoan aniqlang.




### **3-amaliy mashg’ulot: Organik kimyoda yangi reaksiyalar mexanizmi. Nafis organik sintez. Metall kompleks kataliz. (2 soat)**

#### **R E J A:**


1. Platina komplekslari ishtirokida boradigan kross - birikish reaksiyalari, Vaker jarayonlari.
2. Molibden, Reniy, ruteniy katalizatorlari ishtirokidagi metatezis reaksiyalari.
3. Etilen va terminal alkinlardagi reaksiyalar.
4. Mavzu yuzasidan test savollari, misollarni muhokama qilish.

#### **Kross-birikish reaksiyaları**




### **Kumadaning kross-birikish reaksiyasi (1976 y.).**

## Reaksiya tenglaması:




## Reaksiya mexanizmi:




**Negishining kross-birikish reaksiyasi (1976 y.).**

### Reaksiya tenglamasi:




## Reaksiya mexanizmi:




### **Stillening kross-birikish reaksiyasi (1978 y.).**


### Reaksiya tenglamasi:




## Reaksiya mexanizmi:




**Suzukining kross-birikish reaksiyasi (1995 y).**  
REaksiya tenglamasi:





## Reaksiya mexanizmi:




**Xiyamaning kross-birikish reaksiyasi (1994 y).**  
Reaksiya tenglamasi:




## Reaksiya mexanizmi:



## **YAmodaning kross-birikish reaksiyasi.**




## Reaksiya mexanizmi:





## Kori-Xaus reaksiyasi

### Reaksiya tenglamasi:




### REaksiya mexanizmi:






### Metatezis reaksiyalari.


#### Shrok reaksiyasi.




Шрок катализатори




Түликті:



Реаксиya мeхanizmi:



#### Grabbs reaksiyasi (1990 y.).




**4-amaliy mashg'ulot: Organik birikmalarni individual holatda ajratib olish.  
Fizik-kimyoviy usullar yordamida birikmalarning tuzilishini aniqlash. (2 soat)**


**R E J A:**

1. Refraktometriya, xromatografiya, spektral usullar.
2. IQ, PMR spektroskopiya, masspektrometriya.
3. Rentgen tuzilish analizi.



**1.** Rasmda keltirilgan IQ spektridan foydalanib,  $C_3H_6O$  tarkibli moddaning tuzilish formulasiniyozing.




**2.** Rasmda keltirilgan IQ spektrni tahlil qiling va  $C_2H_6O$  tarkibli moddaning tuzilish formulasini aniqlang.




**3.** Rasmda A va B formula bilan ifodalangan qaysi moddaning biriga IQ mos kelishini tushuntiring.






4.  $C_6H_{12}$  tarkibli moddaning IQ spektri quyidagi rasmda ifodalangan. Spektrga qarab uning tarkibida qo'shbog' bor-yo'qligini izohlab bering.




5. Quyidagi rasmda pentametilsiklopentadienga mos keluvchi IQ spektr keltirilgan bo'lsa dienning tuzilish formulasini aniqlang.




I

1,2,3,4,5-pentametilsiklo-  
pentadien




II

1,2,4,5,5-pentametilsiklo-  
pentadien




III


1,2,3,5,5-pentametilsiklo-  
pentadien




6.  $C_8H_{14}$  tarkibli chiziqli tuzilishdagi uglevodorodning IQ spektri rasmida berilgan. Unuing tuzilishi va qaysi sinf vakili ekanligini isbotlab bering.




7.  $C_8H_{12}$  tarkibli siklogeksadien hosilasining IQ spektri berilgan. Uning yordamida va berilgan tebranish chastotalari kattaligidan ( $\nu^s_{C=C}=1581\text{ sm}^{-1}$  va  $\nu^{as}_{C=C}=1610\text{ sm}^{-1}$ ) foydalaniib moddaning tuzilishini aniqlang.




5,5-dimetilsiklogeksadien




5,6-dimetilsiklogeksadien




5-etilsiklogeksadien




8. Olingan IQ spektridan foydalanib,  $C_7H_5N$  tarkibli moddaning tuzilishini aniqlang.




9. Berilgan IQ spektr ma'lumotlaridan foydalanib, 2-fenilbutin-3-ol-2 moddaning tebranish chastotalarini tahlil qiling.



**10.** Keltirilgan penten-3-on-2 IQ spektridagi tegishli tebranishlarni tahlil qilib aniqlang.



**11.** Rasmda berilgan fenilatsetilen va difenilatsetilen spektrlaridagi strelka bilan belgilangan tebranishlarni tahlil qiling va javobini aniqlang.



**12.** Metilbenzol, 1,4-dimetilbenzol, 1,3,5-trimetilbenzollarning YaMR- $^1\text{H}$  spektrida  $\delta = 2,0$  va  $7,2$  m.h. maydonida ikkitadan signallar qayd qilindi. Signallarning nisbiy intensivligi 3:5 (A), 3:2 (B), 3:1 (C) kabi bo'ldi. Qayd qilingan signallar qaysi (A, B, C) moddaga tegishli ekanligini toping.

**13.**  $C_{17}H_{18}OSi$  tarkibli modda eritmasining YaMR- $^1H$  spektrida 2 ta singlet signallar qayd qilindi. Bu qaysi modda ekanligini aniqlang va tuzilish formulasini yozing.

**14.** Ikkita organik moddaning YaMR- $^1H$  spektrida singlet (yakka) signallari: biridan  $\delta$  3,60 va ikkinchisidan 5,00 m.h. maydonida kuzatildi. Tarkibi bir xil  $C_3H_6O_3$  bo'lgan bu moddalarning formulasini aniqlang va nomlang.

**15.**  $C_5H_{12}$  tarkibli moddaning YaMR- $^1H$  spektrida yagona singlet signal  $\delta$  0,82 m.h. maydonida kuzatiladi. Uning tuzilish formulasini yozing va nomlang.

**16.**  $C_6H_{12}$  tarkibli moddaning YaMR- $^1H$  spektrida yagona singlet signal  $\delta$  1,42 m.h. maydonida kuzatiladi. Uning tuzilish formulasini yozing va nomlang.

**17.**  $C_8H_{10}$  tarkibli uglevodorodning YaMR- $^1H$  spektrida intensivlik nisbati 3:2 kabi signallar  $\delta$  2,12 va 7,2 m.h. maydonida kuzatiladi. Uning tuzilish formulasini aniqlang va nomlang.

**18.**  $C_8H_{10}$  tarkibli uglevodorodning YaMR- $^1H$  spektrida nisbiy intensivligi 3:2:5 kabi uchta signallar  $\delta$  1,15 (triplet); 2,8 (kvadruplet); va 7,15 (kengaygan singlet) m.h. maydonlarida qayd etildi. Moddaning tuzilish formulasini yozib nomlang.

**19.**  $C_3H_7Br$  tarkibli uglevodorod hosilasining YaMR- $^1H$  spektrida ikkita signal mavjud:  $\delta$  1,9 (6H, dublet) va 4,3 (1H, multiplet). Modda formulasini aniqlang.

**20.**  $C_6H_{10}O_4$  tarkibli moddaning YaMR- $^1H$  spektrida intensivligi 3:2 kabi ikkita signal mabjud;  $\delta$  1,25 (triplet) va 4,4 (kvadruplet). Moddaning formulasini aniqlang.

**21.**  $C_3H_6O$  tarkibli moddsaning geksandagi eritmasi UB spektrida  $\lambda=279$  nm yutilish maksimumi kuzatiladi. Uning YaMR- $^1H$  spektrida  $\delta$  2,00 m.h.dagi singlet signal qayd etildi. Mass-spektrometriya natijasiga ko'ra  $m/z = 43$  (100 %), 42 (6 %), 27 (18 %) molekulyar ion cho'qqlari qayd qilindi. Shgu moddaning tuzilish formulasini yozib bering.

**23.**  $C_3H_7Br$  tarkibli suyuqlikning UB spektri 200 nm dan yuqori sohada tiniq bo`lib, PMR spektroskopiyasi natijasida quyidagi signallar qayd qilindi: 6:1 nisbiy intensivlikdagi  $\delta$  1,7 (dublet) va 4,4 (septet) m.h. sohalarida rezonanslashuv, IQ spektroskopiyasi natijalariga ko`ra  $v=1050, 1200, 1385, 1470, 2950$   $sm^{-1}$  chastotalarida tebranishlar qayd qilingan bo`lsa, modda tuzilishini aniqlang.

**24.**  $C_3H_7NO_2$  tarkibli modda berilgan. Uning UB spektrida  $\lambda_{max}=280$  nm yutilish maksimumi kuzatiladi. PMR spektrida uchta signallar  $\delta$  1,1 (triplet), 1,9 (multiplet), 4,35 (triplet) m.h. maydonlarda 3:2:2 nisbatlarida rezonanslashadi. IQ spektrida  $v=1385, 1520, 1465, 1480, 2970$   $sm^{-1}$  teranish chastotalari bo`lsa, moddaning tuzilishini aniqlang.

**25.**  $C_3H_5N$  tarkibli moddaning PMR spektri olinganda  $\delta$  1,2 (triplet), 2,4 (kvadruplet) m.h. da signallar kuzatildi. Signallarning intensivligi 3:2 nisbatda. IQ

spektrida  $\nu=1100, 1420, 1460, 2240$  va  $3000 \text{ cm}^{-1}$  tebranish chastotalari bo`lsa, uning struktura formulasi qanday bo`ladi?

**26.**  $\text{C}_4\text{H}_6\text{O}_3$  tarkibli moddaning PMR spektrida  $\delta = 3,00 \text{ m.h.}$  dagi singlet signal qayd etildi. Uning IQ spektrida  $\nu=1400, 1800, 1920, 3000 \text{ cm}^{-1}$  valent tebranish chastotalari namoyon bo`ldi. Mass–spektrida  $m/z=28, 56, 72, 102$  qiymatli molekulyar ion cho`qqilari olingan bo`lsa, modda tuzilishini yozib bering.

**27.**  $\text{C}_7\text{H}_{10}\text{O}_2$  tarkibli moddaning UB spektrida  $200 \text{ nm}$  dan yuqorida yutilish kuzatilmaydi. Uning PMR spektrida  $3:6:1$  nisbatdagi  $\delta = 1,2$  (doublet),  $3,25$  (singlet),  $4,7$  (kvadruplet) m.h. da uchta signal qayd qilingan. Shu moddaning IQ spektrida  $\nu=1410$  (o`rta),  $1490$  (kuchsiz),  $2930, 3000$  (o`rta)  $\text{cm}^{-1}$  sohalaridagi tebranish chastotalari qayd qilindi. Modda tuzilishini izohlab bering.

**28.**  $\text{C}_4\text{H}_8\text{OBr}_2$  tarkibli moddaning PMR spektrida  $\delta = 3,40$  va  $3,80 \text{ m.h.}$  da ikkita teng intensivlikdagi multipletlar olindi. Uning IQ spektrida  $\nu=1320, 1385, 1440, \sim 3000 \text{ cm}^{-1}$  sohalarida tebranish chastotalari qayd qilingan. Mass–spektrida  $m/z=28, 108, 110, 136, 140$  qiymatli molekulyar–ion cho`qqilari olingan bo`lsa, uning tuzilishini aniqlang.

**29.**  $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}_3$  moddaning UB spektri olinganda  $\lambda_{\max}=262 \text{ nm}$  yutilish maksimumi kuzatiladi. Uning PMR spektrida nisbiy intensivligi  $3:4:1$  bo`lgan  $\delta = 2,15$  (singlet),  $2,80$  va  $11,00 \text{ m.x.}$  lardagi uchta signallar kuzatiladi. IQ spektrida  $\nu=1360$  (o`rta),  $1395$  (kuchli),  $1640$  (intensiv)  $\sim 3000$  (kengaygan o`rta)  $\text{cm}^{-1}$  sohalarida tebranish chastotalari bo`lsa, mass–spektrida  $m/z=43, 55, 56$  massali molekulyar–ionlar cho`qqilari mavjud. Modda tuzilishini isbotlang.

**30.**  $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}$  tarkibli moddaning UB spektrida  $\lambda_{\max}=285 \text{ nm}$  yutilish maksimumi qayd qilindi. Uning PMR spektrida nisbiy intensivligi  $6:3:1$  bo`lgan  $\delta = 1,1$  (doublet),  $2,05$  (singlet),  $2,5$  (septet) m.h. dagi uchta signallar kuzatiladi. IQ spektrida  $\nu=1720, 3000 \text{ cm}^{-1}$  sohalarida tebranish chastotalari mavjud. Mass–spektrida  $m/z=27, 43, 71, 86$ , massali molekulyar–ionlarning cho`qqilari bor. Shularni tahlil qilib, modda tuzilishini aniqlang.

**31.**  $\text{C}_5\text{H}_{13}\text{N}$  tarkibli birikmaning UB spektri  $200 \text{ nm}$  dan yuqorida tiniq bo`lib, uning PMR spektrida nisbiy intensivligi  $9:2:2$  bo`lgan  $\delta = 0,85$  (singlet),  $1,10$  (singlet),  $2,3$  (kengaygan singlet) m.h. dagi 3 signallar kuzatiladi. IQ spektridagi tebranish chastotalari  $\nu=1370, 1435, 1560, \sim 3000 \text{ cm}^{-1}$  sohasiga to`g`ri keladi. Mass–spektrida  $m/z=30, 41, 55, 57, 71, 72, 87$  miqdorli molekulyar–ionlarning cho`qqilari bor bo`lsa, uning tuzilishini aniqlang.

**32.** Organik galogenli moddaga natriy sulfidi ta`sir e`tib olingan olingan birikmaning PMR spektrida ikkita singlet signallar  $\delta = 2,85$  va  $7,5 \text{ m.h.}$  maydonlarida  $2:5$  nisbatda qayd qilindi. Uning IQ spektridagi  $\nu=800, 1250, \sim 1400, \sim 1500, \sim 1590$  (kuchsiz),  $2850, 3060 \text{ cm}^{-1}$  sohalarida kuzatilsa, modda formulasini toping.

**33.**  $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}$  moddaning UB spektrida  $\lambda_{\max}=278 \text{ nm}$  yutilish maksimumi kuzatiladi. Uning PMR spektrida  $3:2:3:2$  nisbiy intensivlikdagi  $\delta = 0,95$  (t.),  $1,6$  (m.),  $2,1$  (s.),  $2,85$  (t) m.h. maydonlarida signallar kuzatildi. IQ spektrida  $\nu=2855$  (kuchli),  $2930$  (kuchli),  $2865$  (o`rta),  $1725$  (kuchli),  $1430$  (o`rta),  $1370$  (o`rta),  $1170$

(o`rta)  $\text{sm}^{-1}$  tebranish chastotalari bor bo`lsa, modda tuzilishini isbotlang.

**34.**  $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}$  modda UB spektrida yutilish maksimumiga ega emas. PMR spektrida uchta singlet signallar 6:1:1 nisbatlarida  $\delta$  1,50, 2,61, 4,2 m.h. maydonlarida kuzatiladi. IQ spektridagi  $\nu=2950$  (kuchli), 3300, 3500  $\text{sm}^{-1}$  sohalaridagi (kengaygan o`rta) tebranishlar bo`lsa, uning tuzilishini aniqlang.

## V. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>coordination number</b>	Koordinasion son. Qo'shni atom bilan ikkinchi atomning bilan bevosita bog' hosil qila olish xususiyati.	The number of adjacent atoms to which an atom is directly bonded.
<b>Somplex ion (complex)</b>	Kompleks ion (kompleks). Metall ionining Lyuis asoslari (ligand) bilan bog'langan jamlanma.	Simplex ion (complex). An assembly of a metal ion and the Lewis bases (ligands) bonded to it.
<b>Donor atom</b>	Donor atom. Metall bilan bog' hosil qiladigan atom.	The atom of a ligand that bonds to the metal.
<b>Outer spere</b>	Tashqi sfera - kompleks birikmaning ichki sferasini tashqarisida joylashgan ionlar	Outer spere is a spehere which is behind limits of inner sphere
<b>Chelating ligands</b>	Xelatlar - ichki sferada polidentant ligandlardan sikllar hosil bo'lgan kompleks birikmalar	Chelating ligands are polidentant ligands forming cycles in inner sphere of the complex compounds
<b>X-ray diffraction</b>	Rentgen nurlarining difraksiyasi – rentgen nurlanishdagi to'lqin uzunligini qo'llagan holda difraksion rasm orqali kristall qattiq jismlarning tuzilishini aniqlash usuli.	X-ray diffraction is method for establishing structures of crystalline solids using single wavelength X-rays and looking at diffraction pattern
<b>Superconductor</b>	O'ta o'tkazuvchi – elektr tokini qarshiliksiz o'tkazuvchi moddalar.	Superconductor are substances passing electrical current without resistance.
<b>Critical temperature</b>	Kritik temperatura – moddada o'ta o'tkazuvchanlik xossasi paydo bo'ladigan temperaturaning qiymati	Critical temperature is temperature of substance at which properties of super conductivity have appeared

<b>Critical magnet field</b>	Kritik magnit maydon – kritik temperaturadagi magnit maydonining qiymati	Critical magnet field is magnet field at critical temperature.
<b>dissociation</b>	Eritmadagi ionlarga ajralgan xolatdagi zarrachalar	Breaking down of a compound into its components to form ions from an ionic substance.
<b>ionization</b>	Turli energiyalar ta'sirida neytral molekulani zaryadlangan ionlar utish. (Perekhod neytralnoy molekuliy v zaryajennyye chastisib pod deystviyem razlichnykh elektronov, energiy i t.d.)	a process by which a neutral atom or molecule loses or gains electrons, thereby acquiring a net charge and becoming an ion; occurs as the result of the dissociation of the atoms of a molecule in solution or of a gas in an electric field.
<b>Nanocrystals (Nanokristallar)</b>	Nano o'lchamdagisi yarimo'tkazgich kristallar deb ham ataladi. Nanokristallar istalgan joydan bir necha yuzdan o'n mingtagacha atomning kristallanishi natijasida hosil bo'ladigan, "klaster" nomi bilan tanilgan agregatlardir	Also known as nanoscale semiconductor crystals. Nanocrystals are aggregates of anywhere from a few hundred to tens of thousands of atoms that combine into a crystalline form of matter known as a "cluster."
<b>Nanocomposite (Nanokompozit)</b>	Tarkibida kamida bitta nano o'lchamdagisi ikki va undan ortiq komponentdan tashkil topgan material. Nanozarrachalar boshqa bir qattiq materialda disperslangan	A material composed of two or more substances, of which at least one has a nanoscale dimension, such as nanoparticles dispersed throughout another solid material.
<b>Carbon nanotube (Uglerod nanotrubkasi)</b>	Silindrik shaklga ega uglerod molekulasi. Uglerod nanotrubkasining (CNT) tuzilishi va kimyoviy bog'lari unga	Carbon molecule with a cylindrical shape. The structure and chemical bonds of CNTs result in unique strength, electrical, and

	noyob qattiqlik, elektrik va termik xususiyatlarni beradi	thermal properties.
<b>Colloid (Kolloid)</b>	Bir muhitda nano- yoki mikrozarrachalarning cho'kmaga tushmagan holatda bo'lishi; kolloidlarga gel, aerosol va emulsiyalar kiradi	Nanoscale or microscale particles suspended in another medium; colloids include gels, aerosols, and emulsions
<b>Binding Energy (Bog'lanish energiyasi)</b>	Atomyadrosining, uningtarkibiyqismlarinitash kilqiluvchinuklonlargaparch alanishiuchuntalabqilinadig anenergiyamiqdoriyadronin gbog'lanishenergiyasideyila di	The amount of energy required to break the nucleus of an atom into its constituent nucleons is called binding energy of the nucleus.
<b>calibration</b>	Analitik signalni konsentrasiyaga tugri proporsionallik grafigi (Pryamoproporsionalnaya zavisimost konsentrasiyot razlichnykh analiticheskikh signalov)	the checking, adjusting, or systematic standardizing of the graduations of a quantitative measuring instrument.
<b>The dimerization of radicals</b>	Diasetilenlar hosil bo'lishi bilan boradigan terminal alkinlar ikkita radikalining o'zaro ta'siri	The interaction of two radicals terminal acetylenes to form acetylene
<b>Radioactivity (Radioaktivlik)</b>	Ba'ziog'irelementatomlarib eqroryadrolarininradioakt ivnurlanishorqalio'z-o'zidanparchalanishhodisasi garadioaktivlikdeyiladi.	The phenomenon of spontaneous disintegration of an unstable nuclei of certain heavy elements with the emission of some radioactive radiation is called radioactivity
<b>electrochemical cell</b>	Elektronlar xarakati natijasida paydo bulgan elektr toki	Gives an electric current with a steady voltage as a result of an electron transfer reaction.
<b>Atomic force microscope</b>	Kichik va yumshoqkeramikyokiyarim	A scientific instrument that can generate images of

<b>(Atom kuch mikroskopi)</b>	<p>o'tkazgich namunayuzasiningxususiyat laridankelibchiqqanholdaya qinlashishyokisekin-astauzoqlashishorqali fizikyuzadanano'lchamdag iqismlarni (detallarni) suratgaolibberaoladiganvao g'ishlarnilazeryordamidakо 'rishmumkinbo'lganilmiyqu rilma</p>	<p>nanoscale details on a physical surface by scanning a tiny, flexible ceramic or semiconductor probe just above the surface—where it will be attracted or repelled slightly by features on the surface, and the deflection can be detected with the laser.</p>
<b>electromagnetic spectrum</b>	<p>Spektrning ultrabinafsha va ko'rinvchi qismlarida joylashgan yutilish spektrlari molekulaning elektron holatlari o'rtasidagi o'tishlar hisobiga hosil bo'ladi, shuning uchun ham ularni elektron yutilish spektrlari deyiladi.</p>	<p>Complete range of wavelengths which light can have. These include infrared, ultraviolet, and all other types of electromagnetic radiation, as well as visible light.</p>

## **VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xal.imiz bilan birga .uramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tara..iyot yo'limizni .at'iyat bilan davom ettirib, yangi bos.ichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xal.imizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy ba.odir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulu. xal.ning ishi .am ulu., .ayoti yoru. va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda .abul .ilingan “Ta'lim to'.risida”gi O'R.-637-sonli .onuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muasasalarining raxbar va pedagog kadrlarini .ayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'.risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha .arakatlar strategiyasi to'.risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'.risida”gi P.-2909-sonli .arori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdi.lash to'.risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga .arshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’.risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulu.bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida talab yu.ori bo’lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salo.iyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to’.risida”gi P.-4358-sonli .arori.
14. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari ra.bar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’.risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdi.lash to’.risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgust “Kimyo va biologiya yo’nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to’.risida”gi P.-4805-sonli .arori.
17. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
18. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma.kamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari ra.bar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’.risida”gi 797-sonli .arori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

19. Tojimuxammedov ..S. Zamonaviy organik kimyo. Malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun o’.uv .o’llanma. Toshkent, “Mumtoz so’z”, 2019 y.
20. Tojimuxammedov S. Organik birikmalarining tuzilishi va reaksiyaga kirishish qobiliyati. Toshkent, “Mumtoz so’z”, 2019 y.
21. Shoxidoyatov M., Xo’janiyozov O’, Tojimuxammedov S. Organik kimyo. Universitetlar uchun darslik. Toshkent, “Fan va texnologiya ”. 2014 yil .

22. Advances in Physical Organic Chemistry. Explore book series content. Latest volumes: Volume 53, pp. 2–104 (2019); Volume 52, pp. 2–143 (2018); Volume 51, pp. 2–219 (2017)
23. Рeутов О.А., Курц А.А., Бутин К.П. Органическая химия, в 4-х частях.- М.: Бином. Лаборатория знаний, ч. 1 3-е изд., 2007. 567 с.; ч. 2 3-е изд. 2007. 623 с.; ч. 3 2004. 544 с.; ч. 4 2004, 726 с.
24. Травень В.Ф. Органическая химия.- М.: ИКЦ Академкнига, 2008. Том 1. 727 с.; Том 2. 582 с.
25. Нейланд О.Я. Органическая химия.- М.: Высшая школа, 1990. 751 с.
26. Химическая энциклопедия в пяти томах.- М.: Научная издаательство “Большая Российская энциклопедия”. Том 1. 1988. 623 с.; Том 2. 1990. 671 с.; Том 3. 1992. 639 с.
27. Solomons, T.W. Graham, Fundamentals of Organik chemistry, 4 th editon, John Wiley& Sons, Inc., New York, 1994
28. Моррисон Р., Бойд Р. Органическая химия. Пер. с англ.-М.: Мир, 1974. 1132 с.
29. Робертс Дж., Касерио М. Основы органическая химии. Пер. с англ.-М.: Мир, 1978, 1, 842 с., 2, 888 с.
30. Потапов В.М. Стереохимия.- М.: Химия, 1988. 463 с.
31. Нифантьев Э.Е., Миллиареси Е.Е. Курс органической химии. часть 1.- М.: Прометей, 1993. 312 с.
32. Березин Б.Д., Березин Д.Б. Курс современной органической химии.- М.: Высшая школа, 1999. 768 с.
33. Грандберг И.И. Органическая химия. - М.: Дрофа, 2002. С. 325-328.
34. Стародубцев Д.С. Органичесая химия. - М.: ВШ. - 1991.- С. 287-295.
35. Сборник задач по органической химии, под ред. А.Е. Агрономова, Издательство МГУ, 2000. 160 с.
36. Грандберг И.И. Практические работы и семинарские занятия по органической химии. - М.: Дрофа, 2001. С. 218-224; 365-366.

37. Сайкс П. Механизмы реакций в органической химии. 4-е изд. Пер. с англ.- М.: Химия, 1991. 447 с.
38. Днепровский А.С., Темникова Т.И. Теоретические основы органической химии. 2-е изд.- Л.: Химия, 1991. 559 с.
39. Пацак Й. Органическая химия. – М.: Мир, 1986. – С. 145-149.

#### **IV. Internet saytlar**

40. <http://edu.uz> – O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi
41. <http://lex.uz> – O’zbekiston Respublikasi .onun .ujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
42. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va ra.bar kadrlarini .ayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
43. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
44. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi
45. [www.chemnet.ru](http://www.chemnet.ru) – ximicheskaya informacionnaya set (Rossiya).
46. <http://www.chemspider.com/> – Ximicheskix soyedineniy i smesey, prinadlejaščaya korolevskomu ximicheskому obšyestvu Velikobritanii.
47. <http://www.natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi